

XALQ VA ARMIYA — BIR TAN-U BIR JON!

VATANPARVAR

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan

www.mv-vatanparvar.uz



2022-yil 11-mart, №10 (2969)

@vatanparvar-bt@umail.uz



“

Navkarlar, otida jang qilgan, zarur bo'lganda piyoda jangchiga ham aylangan. Safdagi qo'shnlardan tashqari, xonlarning shaxsiy qo'riqchilari va saroy sog'chilari — otliq qism (purta, qurchin) mavjud bo'lgan.

10-sahifa

“

Urush davrida respublikadagi tibbiyot xodimlari o'z ish tartiblarini tubdan o'zgartirdilar. Ko'pgina tibbiyot muassasalarida yangi mehnat tartibi joriy qilindi. Ish kuni uzaytirildi, ishdan keyin qolib ishlash joriy etildi.

12-sahifa



ISTIQLOLNING,
ISTIQBOLNING
QALQONLARIMIZ!



МАЪРИФАТЛИ ОНАЛАР — МАЪРИФАТЛИ ЖАМИЯТ

Аёл олами гўзал, меҳрли ва адолатли қилиш учун яратилган. Аёл гўзал бўлса — олам гўзал. Унинг биргина тавассуми кўнғилларни хушнуд этади. Аёл бахтли бўлиши нафақат оила, бутун жамиятга таъсири сезилади. Биз ҳеч қачон унутмаслигимиз зарур — аёлини эъзозлаган ва ҳурмат қилган миллатнинг келажаги бардавом бўлади. Зеро, бугунги кунгача юртимизда аёлларга жаҳон давлатларининг ҳеч бирида кузатилмаган эҳтиром ва ҳурмат кўрсатилди. Аёл зотини улуғлаш учун унинг номига йиллар аталди, мукофотлар жорий этилди. Бу каби ишларни айтмасликнинг иложи йўқ.

Баҳор фаслининг биринчи кунидан давлат раҳбари бошчилигида бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишининг мавзуси ҳам аёллар масаласига бағишланди. Бир томондан аёлларимизни таълим, маънавият, сиёсат, иқтисодиёт, ҳуқуқ ва бошқа ижтимоий соҳаларда қарор қабул қилишда фаол иштирок этишга чақирса, иккинчи томондан эркакларимиз аёлларни ижтимоий соҳаларга жалб этиш муҳим эканини англашлари ва Ватанимиз рағнақи учун биргаликда қарор қабул қилишларига қаратилганлиги айтилмоқда. «Оилаларни мустаҳкамлаш, фарзанд тарбиясида ота-онанинг масъулиятини ошириш ҳам бугунги кундаги долзарб масалалардан», дея таъкидлаб, бу борада обрў-этиборли, билимли хотин-қизлардан иборат «Оқила аёллар» ҳаракатини ташкил қилишни ҳамда бу ҳаракат ҳаммамиз севиб кўрадиган «Суюнчи» ўзбек фильмидаги Ханзират бувидек «махалланинг виждони»га айланиши кераклиги, маърифатли жамиятни маърифатли оналарсиз қуриб бўлмаслиги алоҳида таъкидланди.

Демак, аёл нафақат бугунги кундаги мақоми ва жамиятдаги обрўи энг аввало унинг оиласидаги ўрни, оила қадриятига муносабати ҳамда фарзандлари тарбиясидаги муваффақиятларига боғлиқ эканини чуқур англашимиз зарур. Йиғилишда давлат раҳбари аёлларга мурожаат қилиб, оналар фарзандларининг нафақат тарбияси билан шуғулланишлари, унинг билими, дунёқарашининг ривожланишига, маънавиятининг юксалишига янада жиддий қарашлари кераклиги таъкидланди. Фарзандларига ёшлигиданоқ тежамкорликни, саранжом-саришталикни ўргатиб борадиган ҳам аёл аслида. Шу ўринда бугунги кун ўзбек аёли маърифатли, маънавияти юқори, тафаккури теран, шу билан бирга замонамизга хос барча ижобий хислатларни ўзида мужассамлаштирган оқила ва доно бўлишлари ниҳоятда зарурлиги айтилди. Чунки аёлнинг билимдонлиги, маънавияти, маърифати ва саводхонлиги — фарзандининг, оиласининг бахту саодати.

Ҳа, аёлни қанча гўзал таърифлар билан эътироф этсак камдир. Аммо мақтовлар ўзимизники. Бугун аёллар масаласида камчиликларимизни тўғрилашимиз, бажаришимиз зарур бўлган бир қатор ишларни режалаштиришимиз ва унинг ижросини сансоларлик эмас, балки ҳамкорликда ташкил этишимиз зарур. Жумладан, Интернет оламига кириб, «Ўзбек аёли», «Аёл маънавияти», «Ўзбек аёлининг қиёфаси(имижи)» деб қидирар экансиз, юрагимизни оғритувчи салбий маълумотлар кўзимизга ташланади. Ўзбек аёли номи бошқа тилда қидирилса ҳам беҳаёлик кўри-нишлари чиқиб келади. Бу каби маъ-

лумотларни кимлар ва нима мақсадда дунё оммасига ойна бўлган маконга жойламоқда. Қандай манфаатдорлиги бор? Ўзлигимизни ёмон иллат билан дунёга кўрсатмоқдаимизми? Айниқса, миллат онаси, синглиси, қизи ҳаёсиз, ибосиз, фахм-фаросатсиз қилиб кўрсатилаётгани қанчалик ғуруримизни топтаётир? Бундай маълумотларни жойловчиларга жазо чораларимиз борми? Яна кўп саволлар бизни қийнайди, аммо муаммони бартараф этиш ҳам керак, албатта. Шу аснода қуйидаги муаммоларимизни келтирамиз:

Биринчидан, «Ўзбек аёлининг маънавий қиёфаси»ни Интернет тармоқларида кенг оммага, айниқса, дунёга тарғиб этиш бўйича бирорта сайтлар фаолият олиб бормаяпти. Шу сабабли «Ўзбек аёли», «Аёл маънавияти», «Аёл тафаккури» каби номлар билан ўзбек, рус ва инглиз тилларида маълумот жойлаш учун ижтимоий сайтлар очилиб, унда ўзбек аёлининг маънавий имижига кеча ва бугунги қиёфасини киритиб бориш зарур.

Биз учун ушбу йиғилишда яна бир янгилик: келгуси ўқув йилидан бошлаб, магистратурада ўқиётган қизларнинг контракт пуллари тўлиқ бюджетдан қопланиши бўйича топшириқ берилди. Энди эҳтиёжманд оила вакиллари, ота ёки онасини йўқотган талаба қизларнинг таълим контракти маҳаллий бюджетдан тўланадиган бўлди.

Жамиятимизда олима аёллар улусини сезиларли ошириш учун докторантура йўналишида хотин-қизлар учун ҳар йили камида 300 тадан мақсадли квота ажратилиши белгилангани бебаҳо ютуқдир.

Иккинчидан, маълумки, республикамизда кўп йиллар давомида аёллар масаласига оид илмий тадқиқот ишлари тайёрланди. Бу ҳозир ҳам давом этмоқда. Лекин аёллар билан боғлиқ бўлган илмий тадқиқотлар базасининг шакллантирилгани ҳақида бирор маълумот йўқ. Энг ачинарлиси, мазкур тадқиқотларнинг амалиётга жорий этилиши масаласи афсуски, қоғозларда қолиб кетмоқда. Шу мақсадда янги ташкил этилаётган Хотин-қизлар ва оила ишлари қўмитасида ушбу масалалар жорий этилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Жамиятлар ўзгариб, дунёқараш янгиланаётган, муаммолар глобал тус олаётган бир пайтда аёл маънавияти масаласи кун тартибига қўйилди. Хўш, у қандай бўлиши керак? Айрим манбаларда «ожиза» дея таърифланувчи аёллар ҳақиқатдан ҳам кучсизми? Ёки луғатларда келтирилганидек, «эркакка қарама-қарши жинсдаги шахс», «хотин», «никоҳ муносабатларида турувчи, фарзанд кўрувчи» холосми?

Зеро, тарихга назар ташлайдиган бўлсак, темурийлар даврида ҳам маликалар нафақат ички, балки

ҳалқаро дипломатик муносабатларда ҳам фаол иштирок этган. Бунинг исми Руи Гонсалес де Клавихонинг ёзиб қолдирган маълумотларида кўришимиз мумкин. Хусусан, Миср, Туркия, Мўғулистон, Хитой, Испания каби давлатлардан келган элчиларни кутиб олиш маросимида Сароймулкхоним (*Бибихоним*), Хонзодабегим каби маликалар ҳам иштирок этиб, улар испан элчиси шарафига алоҳида зиёфат уюштириб, элчининг эътирофига сазовор бўлади.

Шулар ҳақда ёзар эканмиз, ўйлаб қоламиз: бугунги ўзбек қизларига, аёлларига нима бўлди? Улар кимларга ва нима сабабдан тақдир қилмоқдалар? Наҳот азалий қадриятларимиз унутилди, амалдан тўхтади? Не сабабдан бу ҳолнинг сабабу оқибатлари ҳақида тафаккур қилмай қўйдик?

Европа Комиссияси президентлигига илк бор Германия мудофаа вазири Урсула фон дер Леен хоним яширин овоз бериш йўли билан сайланди. Испания Қуролли Кучлари тарихида эса илк марта 56 ёшли аёл киши Патрисия Ортега Гарсия хоним раҳбар бўлди. Ҳа, бу каби тарихий ёки ҳозирги кунда давлат ишларида ўз билими, ақлу заковати билан фаоллик кўрсатаётган кўплаб аёлларни келтиришимиз мумкин. Аммо бунинг баробарида ҳар кун ижтимоий сайтларда жаранглаб, ҳаммани ўзига тортаётган воқеа-ҳодисаларга қайсидир ўзбек аёли сабаб бўлаётгани, ҳаттоки жиноят содир этишдан қайтмаётгани, энг ачинарлиси, ўзи билан биргаликда фарзандларини ҳам ўлдираётгани юрагимизни ларзага солмасдан қўймайпти. Фикрлашга, бу каби ҳолатларнинг асл сабабини ўрганишга даъват этаётгани, уларнинг олдини олишга чорлов ёки чақириқдек бўлаётгани ҳеч кимга сир эмас, албатта. Нафақат чорлов, балки мазкур ҳодисаларнинг келиб чиқиш илдизларида таниқли маърифатпарвар Абдулла Авланийнинг «Тарбия биз учун ё ҳаёт — ё мамот, ё нажот — ё ҳалокат, ё саодат — ё фалокат масаласидир», деган чуқур маъноли сўзлари нақадар ҳақиқат эканини англамоқда.

«Кактакто» нашри Марказий Осиё тарихида ўз ижоди билан из қолдирган аёллар рўйхатини тузиб, унга қадимги даврдан токи бугунги кунга қадар маънавий етук фидойи аёллар киритилиб, уларга қисқача таъриф берилибди. Масалан, бизга тарихдан маълум ва машҳур бўлган Нодирабегим — «Қўқон хони Умархон (*хукмронлиги 1810–1822*)нинг турмуш ўртоғи. Ўзбек классик адабиётининг вакили. Унинг даврида Увайсий каби шоирлар етишди, Қўқонда йирик адабий муҳит вужудга келди» ҳамда Ҳадича Сулаймонова — «хуқуқ фанлари доктори, Ўзбекистон ССР адлия вазири ва ўзбек тилидаги жиноят ҳуқуқи бўйича илк дарсликнинг муаллифидир» дея келтирилган.

Аёл, авваламбор, она. Фарзандларига чиройли тарбия, гўзал хулқ

бериш уларнинг касби. Мақоми, мартабаси шу билан ўлчанади. Бинобарин, мамлакат тақдири шунга боғлиқ.

Шунга асосланиб айтиш мумкинки, аёл маънавияти ва оила маънавияти ўхшаш, уйғун, муштарак тушунчалардир. Демак, аллани она сути билан бирга ҳазм қилган, тарбияни оилада олган, маҳаллада чиниққан бола Ватан қадрини билади, оила — никоҳ муқаддаслигини англайди. Табиийки, оилавий ажримлар сони кескин камайиб, онгу тафаккурда беназир, тийран нигоҳли инсонлар салмоғи ортади.

Аёл маънавиятининг яна бир муҳим асоси — турмуш ўртоғи «тарбияси». Умуман, ширин сўзи, аёллик меҳри билан эрини оила манфаатларига, демакки, умумбахт йўлида хизмат қилишга ўргатиш чин маънодаги тарбиядир. Аёллар бунга қодир. Бежиз улар «уй — оила бекаси», яъни бошқарувчиси, йўлловчиси дейилмайди ахир. Эътибор берилса, ғарбона очиқ-сочиқ кийинган танноз қиз ҳам, зирак таққан бола ҳам уйдан — онаси олдиндан чиқади. Мазкур ҳолат шу оила тарбиячиси бўлган она маънавияти, маърифатидан дарак беради. Оқилу доно халқимиз «онасини кўр — қизини ол!» дейди-ю, билъакс, «отасини кўриб, ўғлига тег», демайди. Шундай эмасми? Бу — ҳикмат, ибрат.

Тарбия — эгасига қайтувчи жараён. Ким нимани ўзи учун кутса, шуни боласига берсин: оқибат истаган оқибат, меҳр соғинган меҳр... Бу фазилатлар аёлларга хос назокат, ҳаё, самимийлик, камтарлик, оқилалик, уddaбуронлик, тадбиркорлик... билан эгасига етказилар экан, у камолотдек, вафодек ўзига жинсдош хислатларни етаклаб келади. Инсоният яралибдики, шунга интилади. Орзу қилади. Тарғиб қилади.

Хуллас, аёл маънавияти бугун миллат маънавиятига айланди. Унга бепарқ қарашга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ.

Эркаклар жамиятнинг мана шу бахтини асраб-авайлаш, пок номини сақлаш бурчлари эканини, улар Аллоҳ таоло томонидан ато этилган омонат эканини унутмасалар гўзал иш бўлар эди. Чунки аёлнинг жони қирқта, аммо қалби гул, эркаклар шаъни, миллат ори, оила гавҳаридир!

Мунира ҚАХҲОРОВА,
Ижтимоий-маънавий
тадқиқотлар институти
директори ўринбосари
(PhD)





АЁЛ ЖАЪМ ЭТСА...



Замирахон опа бугун мактабдан кайфияти кўтарилиб қайтди. Чунки боя ўқитувчилар хонасида бўлган ўзаро суҳбатда жисмоний тарбия ўқитувчиси у анчадан бери ўйлаб юрган масалага ечим топиб берди: ёш болани иложи борида қанча тез спорт тўғарагига берсангиз, шунча яхши. Аввало, бу саломатлиги учун яхши, баркамол ривожланишида фойдаси катта. Бежизга улуг мутафаккир Абу Али ибн Сино ўз асарларида спорт жисмонан ва ақлан етуклик калити эканлигига алоҳида урғу бермаган. Лекин, афсуски, буни ҳамма ота-оналар ҳам ўз вақтида тушунавермайди...

У шу куни кечки овқатдан сўнг турмуш ўртоғига шу ҳақда сўз очди. Бугун мактабда бўлиб ўтган суҳбатни гапириб берди. Шу аснода муддаосини айтди:

– Дадаси, қизимизни спорт тўғарагига берсак дегандим. Нима дейсиз?

– Яхши бўларди. Лекин Зиёдахон энди 3 ёшга кирган бўлса, ёшлик қилмасмикан? – деди Абдубанноп ака аёлига хайрихоҳ оҳангда.

– Йўқ, мен суриштирдим. 3 ёшдан енгил атлетика тўғарагига қабул қиларкан. Бу спорт тури ҳақида кўп маълумотларни ўқидим, у болада суякларнинг тўғри ривожланишига, чаққон, ҳаракатчан бўлишига, яна ўзига бўлган ишонччи мустаҳкамлашга ёрдам бераркан... Дадаси, Зиёда жуда ҳаракатчан. У эплайди. Агар келажақда шу спорт тури бўйича чемпион бўлсамиз? Биз чемпионнинг ота-оналари бўламиз-да, – Замира опанинг ўз сўзларидан завқи келиб кетди.

– Ҳай-ҳай, олдин тўғаракка борсин, ўргансин, кейин чемпионлики орзу қилсангиз бўлади.

– Нима қилибди, ахир орзуга айб йўқ дейишади-ку, – деди Замирахон ҳам бўш келмай.

– Майли, сиз, нима десангиз шу-да. – Оила бошлиғи аёлига меҳр билан тикилди. – Хўш, шундай қилиб қизимизни қайси спорт мактабига олиб борамиз?..

Замира опа эртасигаёқ жажжи Зиёдахонни Фарғона вилояти болалар ва ўсмирлар гимнастика мактабига етаклаб борди. Шу кундан қизалоқнинг ҳаётида спорт билан чамбарчас бўлган янги саҳифа бошланди...

ҲАҚИҚИЙ ҒАЛАБА

– Ўшанда кичкина бўлган бўлсам ҳам илк марта спорт мактабига келган кунларимни яхши эслайман, – дейди III даражали сержант Зиёдахон Абдуллаева. – Спорт мактабидаги ҳаёт мен учун ҳайратланарли эди. Мана шу ҳайратга қоришиқ қалбимда спортга нисбатан қизиқиш ортган, спортчи қизларга ҳавас уйғонган. Шунинг учун ҳар кунги спорт машғулотида фаол иштирок этишга, белгиланган меъёрларни ортиғи билан бажаришга интилардим. Устозим спорт устаси Елена Дружина эди. Кўзлари меҳр билан боқувчи, гапирганда юзлари ёришиб кетадиган бу аёлга илк кундаёқ меҳрим тушиб қолган. У ҳар бир шогирдига катта ишонч билдирарди, кези келганда рағбатлантирарди, кези келганда қаттиққўллик ҳам қиларди. Мураббийим менга доим: «Сенинг имкониятларинг кўп. Ундан оқилона фойдалансанг, машҳур спортчи бўлиб етишасан», дерди. Елена Дружинадан гимнастика бўйича 7 йил сабоқ олдим. Бу инсондан ўрганганларим кўп. Шунинг учун ҳам улардан бир умр миннатдорман.

10 ёшимда эса устозимнинг тавсияси билан Фарғона вилояти болалар ва ўсмирлар енгил атлетика мактабига бордим ва Ўзбекистонда хизмат кўрсатган мураббий Юрий Яшиннинг спорт гимнастикаси тўғарагига қатнай бошладим. Машғулотларимизнинг биринчи ойидаёқ республика миқёсидаги мусобақаларда иштирок этиб, ғалабага эришдим ва мени Ўзбекистон терма жамоасига қабул қилишди! Бу мен учун ҳақиқий ғалаба эди...

ОСИЁДАГИ ЭНГ КУЧЛИ СПОРТЧИ

Юрий Яшин тажрибали мураббий эди. У шогирдларининг ички имкониятини тўғри баҳолай оларди, машғулотларда шунга қараб юклама берарди. «Машғулотда қийин бўлса, ғалабага эришиш осон бўлади». Бу мураббийнинг шиори эди. Олинган сабоқлар, эгалланган кўникма вақти келиб ўз сўзини айтади: Зиёдахон Абдуллаева ўсмирлик давридаёқ Ўзбекистон ва Осиё чемпионига айланди. 14 ёшида жаҳон чемпионатида иштирок этиш ҳуқуқини қўлга киритди. Швейцария, Россия, Бельгия, Франция, Японияда бўлиб ўтган жаҳон чемпионатларида муносиб иштирок этди. Ўшандаёқ унинг номи Марказий Осиёдаги энг кучли ўнталикка киритилган эди.

ШАРАФЛИ ЙЎЛ

Фарзанд дунёга шунчаки эмас, балки ҳазрат мир Алишер Навоий айтганларидек, комилликка етишиш, ўз атрофидаги одамлар таъсирида камолот пиллапояларини забт этиш учун келади. Маънан бой, жисмонан соғлом ва ахлоқан пок бўлиб боргани сари ҳаёти гўзаллашиб бораверади. Ватан меҳри, ватанпарварлик ҳисси эса бу йўлда унга ҳаммиша куч-қувват бағишлайди. Китоб varaқлаб ўтириб машҳур алломаларимиздан бирининг ватанпарварлик ҳақидаги шундай фикрини ўқиб қолдим: «Ватанпарварлик – ёлғиз ўз Ватанига меҳр қўйишдангина иборат эмас. Бу жуда катта ҳис. Бу – Ватан билан ўзини бир бутун деб билишдир. Ким бўлишдан қатъи назар, унинг ватанпарварлиги сўзи билан эмас, иши билан исбот қилинади». Ўқиганларимдан таъсирландим. Бу сўзлар гўёки шу юрт, шу Ватан учун, унинг тинчлиги ва осойишталигини сақлаш учун юксак мардлик ва матонат кўрсатаётган инсонларнинг эзгу ишларига ишора қилаётгандек таассурот уйғотди менда. Ҳа, бу инсонларнинг қалбида ватанпарварлик ҳисси юқори. Шунинг учун ҳам улар доим шу юрт, шу азиз Ватан учун муносиб авлод бўлишга интилади. Зиёдахон ҳам қалбидаги шундай эзгу истак сабаб ҳаётини ҳарбий касб билан боғлади. Қисқа вақт ичида соҳада ўрин топди, ўзининг вазифасига масъулият билан ёндашиши сабаб жамоадoshларини ҳурматига эришди.

Вақтлар келдики, қаҳрамонимизнинг эришган муваффақиятлари, фидокорона хизматлари давлатимиз томонидан ҳам муносиб эътироф этилди. У Қуролли Кучларимиз ташкил топганлигининг 30 йиллиги байрами муносабати билан «Шўхрат» медали билан тақдирланди.

– 13 йилдан буён Қуролли Кучлар сафида хизмат қиляпман, – дейди қаҳрамонимиз. – Ватан тинчлиги ва осойишталигини сақлаш йўлида оз бўлса-да, ўз ҳиссамни қўшаётганимдан ғурурланаман. Зеро, тинчлик инсон учун ҳамма нарса: осуда ҳаёт, бахтиёр турмуш, фароғатли умр, фарзандлар келажаги... Агар инсон шу неъматлардан маҳрум бўлса, яшашдан маъно қолмайди. Бунини яқин-йироқ мамлакатларда юз бераётган нотинчликлар мисолида янада яхши англаймиз. Шунинг учун ҳам Ватан корига яраш, уни химоя қилиш – улуг вазифа. Тақдирим шундай шарафли иш билан чамбарчас экан, бунини Яратганнинг инояти, деб биламан. Бу дунёда инсон учун киндик қони томган тупроқни асраш, эл корига

яраш, юрт юкига елка тутишдек муқаддас иш бўлмаса керак.

СПОРТСИЗ ҲАЁТ...

– Йўқ, спортсиз ҳаётимни тасаввур қилолмайман. Чунки у турмуш тарзимнинг бир бўлагига айланган, – дейди суҳбатдошимиз. – Ҳарбий хизмат спорт билан чамбарчас боғлиқ бўлганлиги учун спортчи эканлигим хизматда ҳам қўл келади. 2009–2019 йиллар мобайнида ўтказилган енгил атлетика ва сузиш мусобақаларида ва 2020–2021 йилларда куч тузилмалари ўртасида «Мен ғолиб!» шиори остида ўтказилган югуриш мусобақасида фахрли ўринни эгалладим. Яъни спорт билан шўғулланишга менда ҳар доим имконият бор. Тўғри, фарзандларим туғилгач, спортдан бироз чекиниш бўлди. Лекин бу катта танаффус эмас. Ҳозирда ўн йил олдин қўлга киритган кўрсаткичларимни янгилаш учун ҳаракат қиляпман. Бунда менга халқаро тоифадаги спорт устаси, Олимпиада иштирокчиси мураббийим Екатирина Тунгускова ёрдам берапти. Ҳали спортда қўлга киритажак муваффақиятларим олдинда эканига ишонаман.

Мен спортга кучли меҳр қўйган оилада улғайдим. Укам ҳам спортчи. У биатлон спорт тури бўйича Ўзбекистон чемпиони, терма жамоа аъзоси. Оилавий анъанамизни давом эттирган ҳолда фарзандларимни ҳам спорт тўғаракларига олиб борапман. Қизим Мадинабону 11 ёшда. У гимнастика билан шўғулланади. Ўғлим Шавкатжон акробатика тўғарагига қатнайди, вилоят чемпиони.

Спорт инсонни чиниқтириши билан бирга инсонда ирода ва чидамлиликни тоблайди. Масъулият, сабр, бардош каби инсоний хислатларни тарбиялайди. Афсуски, бугунги кунда ҳаётимизга турли гаджетлар, ахборот технологияларининг кириб келгани ёшларнинг жисмоний фаолликдан чекланишига сабаб бўляпти...


«МЕНИНГ БАХТИМ»

– Ўзимни оилам билан бир бутун инсон деб биламан. Мени доим қўллаб-қувватлайдиган қайнона-қайнотам, сеvimли турмуш ўртоғим, шириндан-шакар фарзандларим – менин бахтим. Уларсиз мен бир ўзим ҳаётда ҳеч нарсага эришолмасдим. Шунинг учун ҳам ҳар доим мендан меҳрини, муҳаббатини аямайдиган инсонларни қадрлаб яшайман, уларнинг кўнглини олишга интиламан...

Майор
Гулнора ҲОЖИМУРОВА

BAHOR NAFASI, BAYRAM SHUKUHI DILLARGA KO'CHDI

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Unda mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov, vazir o'rinbosarlari hamda vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan ayollar ishtirok etdi.



Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatimizdagi o'rni va mavqeyini, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi nufuzini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgani katta voqea bo'lmoqda. Eng muhimi, nozik qalb sohiblariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor, ehtirom sabab ularning har jabhada faolligi ko'zga tashlanmoqda: u shifokor, o'qituvchi, muhandis, huquq-tartibot xodimi... Xususan, sharaflı kasb – harbiylikni tanlab, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan ayollarimiz ham borki, ulardagi fidoyilik, burchga sadoqatni ko'rganimizda ko'ngildan cheksiz

faxr-iftixor tuyg'ulari kechadi. Tadbirda so'zga chiqqan mudofaa vaziri Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlarga urg'u berar ekan, ayol harbiy xizmatchilarning Xalqaro armiya o'yinlarida, turli musobaqalarda erishayotgan yutuqlarini, qo'lga kiritayotgan natijalarini olqishladi, ularning kasbiy mahorati, tajribasini alohida e'tirof etdi.

Tantanada bir guruh harbiylar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari mudofaa vazirining esdalik nishoni, navbatdagi harbiy unvon, "Namunali xizmatlari uchun" ko'krak nishoni, faxriy yorliq hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

– O'tgan yili Xalqaro armiya o'yinlarining "Sodiq do'st" musobaqasida

ayollar tarkibida ishtirok etdim. Jamoamiz bilan g'alabaga erishish uchun qattiq intildik. Natijada mehnatimiz bejiz ketmadi: biz g'olib bo'ldik! Bugun tantanada shaxsan mudofaa vaziridan navbatdagi kichik serjant harbiy unvonini qabul qilib olayotgan lahzalarda o'sha zafar zavqini, quvonchini dildan his qildim, – deydi kichik serjant Iroda Olimova. – Bu juda boshqacha tuyg'u. Hatto ko'zlarimga yosh keldi. Hayajonimni so'z bilan ta'riflab berolmayman. Ha, bugun men uchun qo'shaloq bayram. Bu kunni umrbod unutmayman.

– Bayram munosabati bilan II darajali "Namunali xizmatlari uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandim, – deydi

tibbiy xizmat podpolkovnigi Dilnoza Ubaydullayeva. – Kasbim tufayli e'zozlanganimdan behad shodman. Erishgan bu yutug'imda qadrdon jamoamning, ustozlarimning ham hissasi beqiyos. Men ulardan bir umr minnatdorman.

Bayram tantanasi ko'ngillardagi ana shunday ezgu tilak va istaklarni yuzaga chiqardi. Ayollar yuzida shodlik barq urdi. Tantana kuy-qo'shiqlar bilan yanada fayzli bo'ladi, deganlaridek Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalari hamda taniqli san'atkorlar ijrosidagi konsert dasturi ko'ngillarga bahoriy kayfiyat ulashdi.

Mayor Gulnora HOJIMURODOVA

#E'tibor

AYOLLAR YUZIDA SHODLIK



Mamlakatimizda xotin-qizlarning o'rni va mavqeyini, ularning ijtimoiy hayotdagi nufuzini oshirish, jamiyat va davlat ishlarida faol bo'lishlarini ta'minlash bo'yicha bir qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Ular huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi gender tengligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samarali tarzda hayotga tatbiq etilayotir.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Qurolli Kuchlar akademiyasida tantanali tadbir va konsert dasturi o'tkazildi. Unda akademiya shaxsiy tarkibi, ofitser va serjantlar, kursantlar ishtirok etdi.

Tadbirda Qurolli Kuchlar akademiyasi boshlig'i polkovnik Babur Shayaqubov so'zga chiqib, harbiy xizmatchi ayollarni bayram bilan samimiy tabrikladi. Akademiya ilmiy ravnaqi yo'lida fidoyilarcha mehnat qilayotgan bir guruh

harbiy va Qurolli Kuchlar xizmatchilari bo'lmish ayollarga navbatdagi harbiy unvon, faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi. Ular sha'niga iliq fikrlar bildirildi.

Shundan keyin ayollar uchun bezatilgan bayramona dasturxon

atrofida taniqli xonandalar tomonidan tayyorlangan konsert dasturi namoyish etildi. Ayollar yuzidagi shodlikni ko'ring.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"





ЧАҚҚОНЛИК, ДОНОЛИК, ЗУККОЛИК МАЙДОНИДА

Қаноатнинг қатларида
унган чечаксиз,
Сабрларда сайқалланган
бебаҳо малак.
Ёвқурлардек ўғлонларга
ёрсиз – тиргаксиз,
Шул сабаб ҳам шаънингиздир
ой қадар юксак.

Ҳарбий хизматчиларнинг рафиқаларига бағишланган ушбу назмий сатрлар уларга билдирилган ҳурмат ва эътироф намунасидир. Дарҳақиқат, ҳарбий оила бекаларини сабр ва қаноат маликалари, десак, арзийди. Чунки ҳарбий хизматчиларимиз қайси гўшада хизмат қилмасин, уларнинг умр йўлдоши ҳам заҳматли хизматларида елкадош, синовли кунларида суянчиқдир. Мана шу оқила бекаларимиз орасида билимдон, тадбиркор ва зукко аёлларимиз борки, уларга қанча ҳавас қилса арзийди.

ЭЪТИРОФГА ЛОЙИҚ КЎРИК-ТАНЛОВ

Ҳарбий оила бекаларининг интеллектуал салоҳияти, билим ва иқтидори, қобилияти ва гўзал фазилятларини юзага чиқариш мақсадида ҳарбий қисм ва гарнизонларда маънавий-маърифий ва маданий-ҳордиқ тадбирлари ташкиллаштириб келинмоқда. «Мен намунали ҳарбий оила бекасиман!» шиори остида Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги қўшинлари миқёсида босқичма-босқич ўтказилган «Балли, аёллар!» кўрик-танлови ҳам шулар жумласидандир.

Чирчиқ шаҳрида ушбу танловнинг якуний босқичи бўлиб ўтди. Кўрик-танловда вазирлик тасарруфидаги ҳарбий қисм ва муассасаларда хизмат қилаётган ҳарбий хизматчилар оиласининг етти нафар зукко бекаси иштирок этди.

Бекалар тўрт йўналишда – «Мен намунали ҳарбий оила бекасиман», «Игнадан ип ўтмаса», «Ҳозиржавоб ва зукко аёл» ҳамда «Биз Тўмарис издошларимиз» шартлари бўйича ўзаро беллашдилар. Уларнинг ҳар бир чиқиши нуфузли ҳайъат аъзолари томонидан шаффоф тарзда баҳолаб борилди.

Биринчи шартда танлов иштирокчилари шеърлар ва видеороликлар

орқали оиласи ва ўзи ҳақида маълумот берди. Иккинчи шартнинг номидан ҳам кўриниб турибдики, аёлларимизнинг чевар-чечанлиги томошабинлар нигоҳи остида синовдан ўтди.

«Ҳозиржавоб ва зукко аёл»... Бу шартда оилаларда, эр-хотин орасида учрайдиган долзарб муаммоларга урғу берилди. Иштирокчилар Мудофаа вазирлиги хотин-қизлар ва ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзолари билан ишлаш бўйича бош мутахассис Зулфия Мансурова ҳамда ҳайъат аъзолари томонидан тайёрланган, теран мулоҳазаларга асосланган саволларга уч дақиқа ичида жавоб беришларига тўғри келди. Ҳа, бунга катта саҳнада уддалаш осон эмас. Лекин оқила бекаларимиз ҳозиржавоб эканликларини исботлашди.

«Биз Тўмарис издошларимиз» – сўнгги шартда бекаларимизнинг актёрлик маҳорати яққол намоён бўлди. Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ вакили Дилноза Бобоева, Шимоли-ғарбий ҳарбий округдан ташриф буюрган Моҳларой Каримова, ҳарбий қисм иштирокчиси Эльмира Зиявутдинова, Тошкент ҳарбий округи вакили Феруза Усмонова улғ аждодимиз – массагетлар маликаси Тўмарис талқинини саҳнага олиб чиқди. Ҳарбий либос, қилич ва қалқон, катта қўшинга бош бўлиб, от устида босқинчилар лашкарбошиси билан жанг қилиш ва душманни маҳф этиш... Буларнинг барчасини бекаларимиз видеороликлар орқали томошабинларга тўхфа этиб, эътирофларга эга бўлишди.

Шарқий ҳарбий округ номидан иштирок этган Камола Абдуллаева халқпарвар шоира Анбар Отин сиймосини, Марказий ҳарбий округ вакили Хуршида Миркомилова доно ва зукко момомиз Бибиҳоним талқинини, Ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари ва Ҳарбий ҳаво кучлари қўмондонлиги иштирокчиси Дилрабо Тиловова элпарвар ҳассос шоира Нодирабегим сиймосини саҳнада жонлантди. Гўзал ва таъсирли ғазаллар, эътирофлар, олқишлар...

Таъкидлаш жоизки, беллашув давомида бир-биридан билимдон ва иқтидорли қатнашувчиларга муносиб баҳо



бериш учун ҳайъат аъзолари анчагина тер тўқди. Чунки зукко бекаларнинг шартлар бўйича тайёргарлиги юқори баҳолаб муносиб топилди. Шундай бўлса-да, танлов ўз қаҳрамонларини кашф этмоғи шарт.

ТАНЛОВНИНГ ЯНГИ ҒОЛИБЛАРИ

Ҳайъат аъзоларининг одилона белгилаган баҳоларига асосан «Балли, аёллар!» кўрик-танловида биринчи ўрин, яъни мутлақ ғолиблик Марказий ҳарбий округдан иштирок этган ҳарбий оила бекаси Хуршида Миркомиловага насиб этди.

Иккинчи ўринни ҳарбий қисм вакили Эльмира Зиявутдинова эгаллади.

Учинчи ўрин анчайин баҳс ва мунозараларга сабаб бўлди. Негаки, икки

иштирокчининг эгаллаган баллари тенг бўлиб, улар ўртасида алоҳида беллашувлар амалга оширилди. Бирок бир-бирига ён бермаган билимдон ва доно бекалар – Ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари ва Ҳарбий ҳаво кучлари қўмондонлиги вакили Дилрабо Тиловова ҳамда Шарқий ҳарбий округдан ташриф буюрган Камола Абдуллаевага, яъни икки иштирокчига ҳам ҳайъат аъзолари учинчи ўринни беришга қарор қилди.

Танловнинг янада шуқуҳли ўтишида Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган Қуролли Кучлар Марказий ашула ва рақс ансамбли санъаткорлари муносиб улуш қўшди.

Барча беллашув иштирокчиларига Мудофаа вазирлиги томонидан диплом, фахрий ёрлик ва қимматбаҳо совғалар топширилди.

Зулфия ЮНУСОВА,
«Vatanparvar»



HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI TASHKIL ETILDI

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Qarorga muvofiq:

Mudofaa vazirligi huzurida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etildi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmalarida boshqarma boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, tuman (*shahar*) mudofaa ishlari bo'limlarida bo'lim boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimlari joriy etildi;

"Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati davlat muassasasi bo'lib, uning asosiy ta'sischi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hisoblanadi;

O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari "Vatan tayanchi" harakati faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

"Vatan tayanchi" harakatining faoliyatini samarali tashkil etish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar

harbiy-vatanparvarlik harakatini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etiladi;

davlat umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi rahbarligida tarkibi 20 nafar 10–11-sinf o'quvchilaridan iborat bo'lgan "Vatan tayanchi" otryadlari tuziladi va ularning faoliyati "Vatan tayanchi" harakati tomonidan muvofiqlashtirib boriladi;

"Vatan tayanchi" otryadlariga davlat umumta'lim maktablari o'quvchilari ixtiyoriylik asosida a'zo bo'ladi;

"Vatan tayanchi" otryadlarining a'zolari "Vatan tayanchi" harakati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasi hisobidan faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan emblema bilan ta'minlanadi;

2022/2023 o'quv yilidan "Vatan tayanchi" harakatining faoliyatida faol ishtirok etgan hamda maktabni a'lo baholarga tamomlagan har bir "Vatan tayanchi" otryadining bir nafar a'zosiga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi.

**Mudofaa vazirligi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
departamenti**



Suratlar tahririyat arxividan olindi

#Yosh chegarachilar

FIDOYI YOSHLARNI TARBIYALASH – USTUVOR VAZIFA

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, ertamiz egalarini o'z qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega, barkamol insonlar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi ham respublikamizning chegara oldi hududlaridagi umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlarini qamrab olib, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etib, Chegara qo'shinlarining shonli va jangovar an'analarini targ'ib etgan holda chegara xizmatiga qiziqtirish va bosqichma-bosqich tayyorlab borishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur musobaqaning bu yilgi mavsumini yuqori saviyada tashkillashtirish maqsadida, DXX Chegara qo'shinlari tashabbusi bilan o'tkazilgan ishchi guruh yig'ilishida O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'limi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, Sog'liqni saqlash va Transport vazirliklari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Toshkent shahri va

viloyat hokimligi hamda boshqa vazirlik va idoralarning vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilish avvalida "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining 2021-yilgi mavsumi, unda erishilgan yutuq va natijalar, shu bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisobi o'tkazildi. Shundan so'ng davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvar kungi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining bu yilgi mavsumini eng chekka hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarni ham keng qamrab olgan holda sifatli va mazmunli tashkil etish uchun hamkorlikda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar, talab etiladigan kuch va vositalar xususida so'z yuritildi.

Bugungi yig'ilishimizda asosan uchta masala ko'rib o'tildi, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi bosh mutaxassisi Nargiza Tojimurotova. – Birinchi masala, musobaqaning tuman, viloyat va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazish va ishchi guruh a'zolari tomonidan xizmat safarlari uyushtirilib, hududiy bosqichlarini nazoratga olish zarurligi, ikkinchi masala ishtirokchi yoshlarni taqdirlash, bu jarayonda



nafaqat 1, 2 va 3-o'ringa munosib deb topilgan jamoalar, balki yoshlarga motivatsiya berish maqsadida barcha ishtirokchilarni nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantirish maqsadga muvofiq, uchinchi masala esa musobaqalarni o'tkazish jarayonida yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, diqqatga sazovor joylarga tashriflarini uyushtirish, yozuvchi va shiorlar, taniqli san'at namoyondalari bilan uchrashuvlarini o'tkazish hamda vatanparvarlikka yo'g'rilgan filmlarni namoyish etish zarurligi kabi masalalar muhokama qilinib, taklif hamda mulohazalar bildirildi.

Tadbir davomida bugungi kunda hamkor vazirlik va idoralar hamda

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri va viloyat hokimliklari bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi qarori loyihasini tasdiqlash bo'yicha tegishli ishlar olib borilayotgani xususida ham ma'lumot berildi. Yakunda yig'ilish ishtirokchilari musobaqalarning har uchala bosqichida amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan o'zaro kelishib oldilar.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Инсон ҳаётида шундай бир давр борки, бунда ҳар бир йигитнинг Ватанга бўлган самимий муҳаббати, садоқати, ор-номуси шаклланади. Бу – шубҳасиз, муддатли ҳарбий хизматни ўташ даври.

ВАТАНГА ХИЗМАТ САРИ ЙЎЛ...

Шу кунларда «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунига мувофиқ ҳамда «Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг муддатли ҳарбий хизматга навбатдаги чақируви ҳамда белгиланган хизмат муддатини ўтаб бўлган муддатли ҳарбий хизматчиларни Қуролли Кучлар резервиге бўшатиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорига асосан, Ватан ҳимоясига бел боғлаган юзлаб ёшларни муддатли ҳарбий хизматга кузатув маросимлари бўлиб ўтмоқда.

ТОШКЕНТ ШАҲРИ

Тошкент шаҳри мудофаа ишлари бошқармасида муддатли ҳарбий хизматга чақирилган ёшларни Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафига кузатишга бағишланган тантанали митинг бўлиб ўтди.

Албатта, бу ергача етиб келиш учун улар юзлаб тенгдошлари орасидан сараланиб, мураккаб синовлардан муваффақиятли ўтиб келишди. Ушбу байрамона кузатувда Тошкент ҳарбий округи масъуллари, «Нуроний» жамғармаси вакиллари, фахрийлар, шунингдек, мард ўғлонларнинг ота-оналари, яқинлари иштирок этишди.

Тошкент ҳарбий округи кўшинлари қўмондонининг биринчи ўринбосари полковник Лазизбек Усмонов сўзга чиқар экан, Ватанни чин дилдан ҳимоя қилишга тайёр мардлар, шижоати баланд йигитлар армиямизнинг асосий таянчи эканини алоҳида таъкидлаб ўтди. Шунингдек, ўз фарзандини ҳарбий хизматга кузатаётган ота-оналарнинг хурсандчилик кўз ёшлари, фахр-ифтихорга тўла сўзлари барчани бирдек ҳаяжонлантирди.

Муддатли ҳарбий хизматга йўл олаётган чақирилувчи Жавоҳир Қахрамонов тенгдошлари қатори Ўзбекистон Республикасига сўнгги нафасигача содиқ бўлишга, юрт тинчлиги учун жонини ҳам аямасликка сўз берар экан, ҳарбий соҳада ёшларга яратиб берилётган барча шароитлар учун алоҳида миннатдорлик билдирди.

Тадбир давомида чақирилувчиларга Тошкент шаҳри Юнусобод тумани ҳокимлиги томонидан тайёрланган эсдалик совғалар топширилиб, уларнинг ҳарбий хизматдаги фаолиятида улкан зафарлар тилаб ўтилди.

Меҳмонлар учун ташкил қилинган концерт дастури ва байрам дастурхони барчага ёрқин лаҳзаларни, унутилмас дамларни тақдим этди.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН

Қорақалпоғистон Республикаси мудофаа ишлари бошқармасининг йиғин пунктида Ватан олдидаги муқаддас бурчини бажаришга отланган йигитларни муддатли ҳарбий хизматга кузатув маросими бўлиб ўтди.

Кузатув маросимида Нукус гарнизони ҳарбий окрестри томонидан тантанада куйланган куй ва қўшиқлар, чегарачи ҳарбий хизматчиларнинг қўл жанги ва хизмат итлари билан кўргазмали чиқишлари юрт ҳимоясига отланган йигитларда садоқат ва миллий ғурур каби туйғуларни алангалатди.

СУРХОНДАРЁ

Термиз гарнизонида ҳам Сурхондарё вилояти ҳокимлиги билан ҳамкорликда чақирилувчиларни муддатли ҳарбий хизматга кузатиш тадбирлари тантанали руҳда ўтди.

– Тиббий кўрикдан ўтганимдан сўнг менга кейинги босқич, яъни жисмоний тайёргарлик йўналиши бўйича назорат синов машқларидан ўтишим кераклигини айтишганларида жуда хурсанд бўлдим. Сўнгра жисмоний тайёргарлик ва бошқа барча синов имтиҳонларидан муваффақиятли ўтиб, Ватан олдидаги бурчимни бажариш учун йўл олдим. Мен барча сафдошларим қатори олдимизга қўйилган вазифаларни аъло даражада бажаришга сўз бераман, – дейди чақирилувчи Санжар Жўраев.



ВОДИЙНИНГ МАРД ЎҒЛОНЛАРИ

Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятларининг шаҳар ва туманларидаги мудофаа ишлари бўлимлари ҳузуридаги бутлаш, ҳудудий ва ҳудудий-тиббий комиссияларида, шунингдек, мудофаа ишлари бошқармаларида мард ўғлонларни тантанали равишда муддатли ҳарбий хизматга кузатиш тадбирлари бўлиб ўтмоқда.

Шу каби тадбирлар ҳар бир округ ва мутасадди ташкилотлар – ота-оналар, ёшлар, фахрийлар ва кенг жамоатчилик қўршовида бўлиб ўтмоқда.

Хуллас, эл қорига ярашни мақсад қилган довурак ўғлонларимизни байрамона кузатиш маросимлари республикамиз бўйлаб мардлик ва матонат байрамига айланиб бормоқда, десак тўғри бўлади.

Катта лейтенант
Бобур ЭЛМУРОДОВ,
«Vatanparvar»



«Мен бу кунни муҳаббат тўла қалбим билан қарши оламан»

«Икки йил азоб-уқубатлар ичида ўтди. Шалок машинада иш қидириб, мамлакатни дарбадар кезишга тушдим. Бир шиша арзон шароб учун ҳар қандай ишни бажариб кетадиган бўлдим. Кечалари дуч келган харобаларда тунаб қолар ва ўзимнинг ночор қисматимга аччиқ-аччиқ кўз ёш тўкардим».

Бир шиша арзон шароб учун ҳар қандай ишни бажариб кетадиган одамлар... уларга неча бор дуч келамиз. Баъзиларимиз уларни яқинимизга йўлатгимиз келмайди, узоқроқ бўлишга ҳаракат қиламиз. Шундай эмасми? Қўшнингиз бўлса-чи? Арзимаган юмуш айтиб, қўлига бироз пул тутаман «Дом»да арзийдиган юмуш ҳам бўлмайди, аслида. Унга қараб баъзан ўйга толаман: «Наҳотки Ог Мандинодек буюк ёзувчи ҳам бир вақтлар мана шу қўшним каби «бир шиша арзон шароб учун ҳар қандай ишни бажариб кетадиган» ҳолга тушган?!»

Китобнинг мўъжизавий кучи ҳақида кўп гапирамиз. Агар буни ўз бошимдан кечирмаганимда эди қайта-қайта такрорлашдан тийилган бўлар эдим. Китоб беминнат дўст! Китоб ҳаётимнинг энг синовли лаҳзаларида менга қандай ёрдам берганини яна такрорлаш ниятим йўқ. Сизга китобнинг Ог Мандино ҳаётида қандай бўрилиш ясаганини айтишнинг ўзи кифоя қилади.

Тасаввур қилинг, қанча тиришсангиз ҳам, жонингизни жабборга бериб ишласангиз ҳам ночорликдан чиқа олмаяпсиз. Қарз ботқоғига ботяпсиз, камига шаробхўрлик қўшилди, оилангизни бой бердингиз... Ишламоқчи бўласиз, умид билан, ҳамма нарсани яна қайта ўрнига қўймоқчисиз, аммо бефойда. Иш йўқ. Баттарроқ, баттарроқ ботяпсиз. Қалбингизнинг туб-тубида бунга қарши ожизгина исён бор... Аммо чора йўқ. Ҳаётга қўл силташдан бошқа йўл йўқ. Улимада нажот бордек...

Шундай кунларнинг бирида у тасодифан шаҳар кутубхонасига кириб қолди. У ерда америкалик йирик ишбилармон Уильям Клемент Стоун ва Наполеон Хиллнинг «Ижобий дунёқараш ёрдамида муваффақиятга эриш» китобини варақлади... Айнан шу китоб, ундаги йўл-йўриқлар унинг дунёқарашини тамомила ўзгартириб юборган эди.

«Замонавий Америка романлари» тўпламида у ҳақда шундай сўзларни ўқиймиз:

«Ог Мандино (1923–1996) асарлари энг кўп ўқиладиган америкалик ёзувчи. Унинг асарлари 25 тадан кўпроқ тилга таржима қилинган, 50 миллион нусхадан ортиқ китоблари сотилган. Жаҳондаги турли мамлакатлардаги минглаб одамлар – Америка

корпорацияларининг маъмурларидан тортиб, Япония фабрикаларининг ишчиларига, Мексика қамоқхоналарининг маҳбусларига немис уй бекалари, футбол тренерлари ҳамда Филиппиндаги руҳонийлар ёзувчи асарларидаги маслаҳатларига амал қилишлари натижасида ўз ҳаётларида мўъжизалар рўй берганлиги учун Ог Мандино олдида умрбод қарздор эканликларини эътироф этадилар».

Бугун сизга Ог Мандинонинг энг машҳур асари – «Дунёнинг энг буюк савдогари»ни тавсия қиламиз. Ушбу асар Рустам Жабборов томонидан ўзбек адабий тилига чевирилган.

Асар шундай бошланади: «Хафид бир муддат кўзгу қаршида тўхтаб, ўзининг сайқалланган маъдан сатҳидаги аксига кўз ташлади:

– Ортда қолган ёшликнинг излари фақат кўзлардагина сақланиб қолади, – дея пичирлади у шини мармар зал тарафга одимларқан.

Улкан биринж тувакларда бир неча авлодни кўрган, юз йилларни қаритган баҳайбат пальмалар ўртадаги антиқа фавворани қуршаб олишган. Фаввора атрофида нимфалар ҳайкаллари ўрнатилган эди. Хафиднинг бу қасрига кириш шарафига муяссар бўлган ҳеч бир инсон қаср хожасининг афсонавий бойлигига шубҳа қилиши мумкин эмасди».

Қизик, бой бўлишни истамайдиган одамлар ҳам бўлиши мумкинми? Ёки аксинча. Мислсиз бойликка эга бўлсангу, уни фақирларга тарқатиб юборсанг... Шундай бўлиши мумкинми? Қай ҳолатда инсон бойликдан воз кеча олади. Бойлик ҳаёт мазмунини белгилашга қодирми?



Ўқиймиз: «–Биродари азиз, мендан илк бор топшириқ олган кунинг эсингдами? Бунга кўп йиллар бўлди. Ўшанда эндигина қўлимга ишга келгандинг.

Эразмуснинг юзи бир зум тиришиб, кейин ёришгандек бўлди.

– Хожам, ўшанда «йиллик фойдамизнинг тенг ярмини ғарибларга тарқатиб чиқ», дегандингиз.

– Сен эса мени савдо ишида нўноқликда айблаб, айтганимни қилмагандинг, – муғамбирона лўқма ташлади Хафид.

– Мен бирор нохушлик юз беришидан хавфсирагандим, хожам.

Хафид тоғдек уюлиб ётган молларга ишора қилди:

– Энди ўша хавотиринг беҳуда эканини тан оласанми?

– Ҳа, хожам.

– Ҳозир ҳам мен ўз режаларимни сенга тўла ошкор этмасимданок, амримни бажо этишга киришавер. Мен қариб қолдим, эҳтиёжларим ҳам шунга яраша. Маҳбубам гўзал Лиша мени ташлаб кетганидан бери анча йиллар ўтди. Шундан бери мен фақат ўз бойлигимни шахримизнинг фақирларига тарқатиш ҳақида ўйлаяпман. Тинчгина умргузаронлик қилишим учун ўзимда энг зарур нарсаларни олиб қоламан».

Асар шу тарзда сизни ўзига тортиб ола бошлайди. Аввалига ишонгингиз келмайди, бойлик Хафидники эмас, сизникидек фақирларга тарқатилишига қаршидек бўласиз. Дунёнинг энг бой одами бойликларидан кечмоқчи. Осонгина йиғилмагани маълум. Бир вақтлар Хафид савдо расталари орасидан шунчаки юришга ҳам қийналарди, кўрқарди. Энди... қандай қилиб?

Асарнинг қаймоғи, ҳа, ҳа, қаймоғи олдинда!

Булар – номалар!

Ўқиймиз: «Мен бу кунни муҳаббат тўла қалбим билан қарши оламан.

Энди мен буюк сирни – ўй-хаёллардаги ҳар қандай орзуни рўёбга чиқара олишни биламан. Менинг

муқулларим худди пўлат сингари мустаҳкам. Агар истасам, қалқонни ҳам теша оламан. Мен ўз ҳаётимни ўзгартира оламан. Лекин инсонлар қалбини кашф этадиган ягона куч бу – муҳаббат. Мен ана шу санъатни мукамал ўзлаштира олмас эканман, бозордаги ҳаммол даражасидан юксала олмайман. Мен муҳаббатни энг қудратли қуролга айлантираман, шунда мен юзланган бирор инсон менга қарши тура олмайди. Менинг далилларимга улар ўзларича жавоб беришлари, менинг қарашларимга улар ишонмасликлари мумкин. Майли, менинг ҳақиқатларимни улар киноя билан қарши олишсин, майли, менинг ташқи кўринишим уларга ёқмасин. Ҳатто менинг мурасасозлигимни улар нотўғри тушунишар. Яъни мен нима демай, нима қилмай, уларда шубҳа уйғотарман. Ва фақат менинг қайноқ муҳаббатим ҳар қандай музни ҳам эритишга қодир бўлган қуёш нурлари сингари уларнинг қалбига илиқлик олиб киради».

Биласизми, асардан, айниқса, сеvimли асардан парчалар келтириш қийин. Энг, энг, ўқувчининг кўнглига етиб борадиган энг таъсирчан парчани келтирай деяпман-у, барибир китобнинг ўзини ўқиганга етармиди? Табиийки, ҳар бир асар бир-биридан кескин фарқ қилади. Бироқ шундай асарлар борки, улар ҳаётингга, тушунчаларингга тошқин каби таъсир ўтказади. «Дунёнинг энг буюк савдогари» ана шундай асарлар сирасига киради. Ушбу асарни фарзандларингизга ҳам тавсия қилинг. Бу саргузашт эмас, ҳаёт ҳикматларидир. Биргаликда ўқинг, таассуротларингизни ўртоқлашинг! Бебаҳо бир китоб билан ўзингизни, оила аъзоларингизни хушнуд этинг! Сўзимни асардан бир парча билан мухтасар қиламан.

Ўқиймиз: «Мен бу кунни муҳаббат тўла қалбим билан қарши оламан.

Аммо мен ҳаммадан кўра кўпроқ ўзимни севишим керак. Бу муҳаббат мени қалбимга, онгимга, қучоғимга интилаётган ҳамма нарсага ўта сергак ва теран боқишга ундайди. Мен ўзимга тегишли ҳамма нарсага эътиборли бўламан. Ўз вужудимни ва руҳимни покиза сақлайман. Менинг кўзларим ҳеч кимга қарахт боқмайди, ҳеч қачон тушқунликка тушмайман.

Атрофимдаги ҳамма нарсага мен ўзлаштирган асрий ҳикматлар нигоҳи билан қарайман. Ҳеч қачон ўз қалбим ва руҳимга шафқатсиз ва ҳиссиз бўлишга имкон бермайман. Тафаккур ва эътиқод менинг асосий таомим бўлади. На алам, на худбинлик менинг қалбим ва руҳимни ёриб кира олмайди. Юрагим беғоналарнинг кечинмаларига бефарқ бўлганидан кўра тарс ёрилиб кетгани афзал».

Ҳузурли мутолаалар тилаги билан

Инобат ИБРОҲИМОВА,
«Vatanparvar»



Китобхонлик маданиятини оширишда оммавий ахборот воситаларидан унумли фойдаланиш мумкин. Бироқ ҳамма гап ахборот истеъмолчисига айланиб бораётган аудитория учун таъсирчан усулларни қўллай олишда. Газета ўқимайдиган, китоб ўқимайдиган авлод шаклланипти, деб бонг урамиз. Бугун глобал тармоқ, ўргимчак тўри инсониятни тобора ўзига тортиб олаётгани ҳам ҳақиқат. Тарози палласида ахборот ва маънавият турибди.

Сиз қайси томондасиз? Юк қайси тарафга оғяпти? Замонавий ахборот технологиялари онгимиз, шууримизни имтиҳон қилаётгандек. Тобора ахборот истеъмолчиси бўлиб қолиш давлат, жамият учун хатарлими? Шахс ўзини, ўзлигини йўқотиб қўймаймиди? Менимча, муаммо ахборот маданияти билан боғлиқ. Масала ахборотни кераклиси ва кераксизига ажрата олишимизда. Бу орқали ахборот зарarli оқимидан қалб иллатларга тўлиб, хасталанмаслигининг олдини ола билишимиз муҳим. Танимиз оғриса, дархол дори-дармон излаймиз. Қалб оғриса, хасталанса-чи? Қалбни нега даволамаймиз, даволашга, жароҳатларига малҳам босишга уринмаймиз? Ўлимдан сақлаб қолишга уринмаймиз? Аслида қалб хасталанса, танамиз ҳам хасталанади. Бунинг англамаймиз. Демак, ахборот ва маънавият ўртасидаги мувозанатни сақлай билиш шахс учун ҳам, жамият ва давлат учун ҳам муҳим.

«Газета, журнал, китоб, радио, телевидение, телефон, факс, компьютер, Интернет, мобиль телефон шарофати билан Ер юзи мўъжаз «қишлоқ»қа айланди-қўйди. Икки дунёни бир қадамга айлантирган ҳам ахборот, глобаллашув жараёнлари махражи, устқурмаси ҳам ахборот. Замонавий тараққиёт, фаровонлигу фароғатнинг нони, суви, ҳавоси ҳам шу! Санаб ўтилган ахборот воситаларининг кўзга кўринмас чангалдан ташқарида яшаётган одам йўқ ҳисоби», деб ёзади ёзувчи, филология фанлари доктори Хуршид Дўстмуҳаммад. «Одамлар китоб, газета журнал ўқимай, ижтимоий тармоқлардаги енгил-елпи ахборий маълумотлар билан чекланиб қолаверса, илм-маърифат ўнгланиш ўрнига, янада хароб бўлмайди». Олимлар, зиёлиларнинг хавотирида асос бор.

Глобал тармоқда кун сайин, соат сайин пайдо бўлаётган, олди-қочди, шов-шувга ўч нашрлар фикрлаш, мулоҳаза юритишдан йироқ авлодни шакллантиришга хизмат қилаётгандек. Китоб тамаддуни тугаб боргани сайин, инсониятнинг жангари кайфияти орта бошлашини ёзувчи Фозил Искандар бежиз ёзмаган. Бугун дунё тамаддунидаги зиддиятлар ортида шу ҳақиқатни илғаш мумкин.

«VATANPARVAR» ДА КИТОБХОНЛИК ТАРҒИБОТИНИНГ КОНВЕРГЕНТЛИККА БОҒЛИҚЛИГИ



Мархум Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф «Қалб жисмга нисбатан подшоҳ кабидир», дейди. Подшоҳдан яхши амр чиқса, фуқароларга яхши бўлганидек, юракдан яхши ниятлар чиқса, жисмнинг бошқа аъзоларига яхши бўлади. Ўз навбатида қалб маънавият билан тирик. Демак, ахборот асрида имтиҳондан ўтаётган авлод қалбни омон сақлаб қолишида гап кўп. Бунда китобхонлик масаласи, муталаа маданиятининг аҳамияти бекиёс. Аҳоли, хусусан ёшлар ўртасида китоб муталааси ва китобхонлик маданиятини оширишга Ўзбекистонда сўнгги йилларда бежиз эътибор қаратилмаяпти. Вазирлар Маҳкамасининг 2020–2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорида «Чоп этилаётган китобларни аҳоли ўртасида оммавий ахборот воситалари орқали тарғиб қилиш, таълим муассасалари, кутубхоналар, маҳаллаларда китоб муаллифлари билан ижодий учрашувларни ташкил этиш ҳамда таълим муассасалари, айниқса, мактабгача ва бошланғич таълимда ўқиш маданияти ва муталаа кўникмаларини шакллантириш тизими йўлга қўйилмаган», деб ёзилган. Афсуски, бу борада муаммоларимиз бисёр.

«Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари» тамойили асосида тараққиётнинг янги босқичига қадам қўяр эканмиз, ёш авлоднинг маънавий-интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтиришда, она Ватани ва халқига муҳаббат, садоқат туйғуси шаклланишга шахсни тарбиялашда китобхонлик маданиятини ошириш муҳим аҳамият касб этади. Вазирлар Маҳкамасининг юкорида тилга олинган қарори бўйича ОАВда, хусусан, Мудофаа вазирлиги муассислигида чоп этиладиган «Vatanparvar» газетасида амалга оширилаётган ишларга шу ўринда эътиборни қаратдик. Муҳими, газета таҳририяти ҳарбий хизматчиларда китоб ўқишга рағбатни, қизиқишни ошириш борасида муҳим инновацион ечимларни излаётгандир.

Газетада «Келинг, китоб ўқиймиз!» рукни остида 2020 йилдан бошлаб мунтазам равишда ҳар сонда мақолалар чоп этиб борилади. Рукни асосан таҳририятнинг таниқли журналисти, «Олтин қалам» халқаро танлови номинатсия ғолиби Инобат Иброҳимова олиб боришини газетхонлар яхши билишади. «Мен ўзбек халқига ҳайкал қўяман», «Ўтиб бўлмас ўрмонлардан ўтмоқ лозим», «Дуйшэнинг мактаби», «Ғарбий фронтда ўзгариш йўқ», «Мен Туроннинг қадим кўнғироғимен» каби мақолалар айнан тилга олинаётган рукнда чоп этилган ҳамда аудитория эътиборини тортган материаллар

сирасидан. Мазкур мақолаларда муаллиф бир асар таҳлили мисолида газетхонни китоб ўқишга, маънавий озуқа олишга даъват этади.

Газетхонларда, хусусан, юрт ҳимоячиларида китобхонлик маданиятини шакллантириш нашрнинг тарғибот функциясида муҳим концептуал аҳамият касб этаётгани қувонарли. Инновацион ечим деганда таҳририятдаги журналистик материаллар конвергентлашуви жараёнининг китобхонликни тарғиб қилишга йўналтирилганини назарда тутдик.

Маълумки, «Конвергенция» лотинча «convergo» – «яқинлашаман» сўзидан олинган бўлиб, инглиз тилида «convergence» сифатида талаффуз қилинади ва бир нуқтада жамланиш маъносини беради. Рус олимаси М. Павликова канадалик ОАВ тадқиқотчиси Дэнис Маккуэйлнинг фикрларига таянган ҳолда уни қуйидагича таърифлайди: «Бу бир хил мазмунга эга бўлган махсулотнинг турли хил каналларда, турли воситалар ёрдамида тарқалишидир».

Филология фанлари доктори, доцент Н. Қосимова ўзининг «Онлайн журналистика» номи дарслигида конвергенциялашув хусусида тўхталиб, журналистик амалиётда конвергенция бир неча кўринишларда намоён бўлишини таъкидлайди. Шулардан бири тайёрланаётган журналистик материалнинг конвергенциялашуви «Vatanparvar» газетасида оммабop мақолаларнинг аудиоматини тинглаш учун саҳифада QR-код эълон қилиниши, QR-кодни сканер қилиш орқали аудитория қизиқарли материаллар асосида тайёрланган видеороликни томоша қилиш имконига эга бўлишида кўзга ташланади. Таҳририят айнан бу стратегияни китобхонлик маданияти билан боғлиқ масалага ҳам йўналтираётгани эътирофга сазовор. Масалан, «Ҳарольд Ламб: «Бобур – йўлбарс» сарлавҳали мақола чоп этилган саҳифа четига «Инновация. Мақоланинг аудио шаклини тинглаш учун QR кодини сканер қилинг» ёзуви киритилган. Материал америкалик шарқшунос олим Ҳарольд Ламбнинг узoқ йиллар изланишлари маҳсули бўлган «Бобур – йўлбарс» номи асаридан таъсирланиб ёзилган. Матнли ахборотнинг овозли ахборот-аудиоматн шаклида ҳам узатилиши биринчидан, интернет имкониятидан унумли фойдаланишга, иккинчидан, аудиториянинг эътиборини янада тортишга уринишни кўрсатади. «Агар менинг

ўғлим ҳаёт бўлганида...» номи материалдаги конвергентликда ҳам китобхонлик тарғиботи билан боғлиқ ахборот мавжуд. Газета таҳририяти ва муассиси муаммога ёндашувнинг бундай самарали усулларини татбиқ этиш орқали:

ҳарбий хизматчиларнинг маънавий-руҳий барқарорлигини таъминлаш;

ҳарбий хизматчиларни жанговар, маънавий-маърифий тайёргарликларда илғорликка руҳлантириш;

аудиториянинг тафаккурини бойитиш, дунёқарашини кенгайтириш;

аудиторияда ватанпарварлик, мардлик, жасорат, матонат каби фазилатларни тарбиялаш;

китобхонлик тарғиботини ривожлантириш каби мақсадларни кўзда тутганлиги материаллар таҳлилида яққол билинади.

Шу ўринда айрим таклифларни билдириб ўтсак. «Vatanparvar» газетаси саҳифаларида, умуман, босма нашрларда китобхонлик бўйича берилаётган материалларга QR-код қўйиш орқали қўшимча имкониятларни киритиш китобхонлик билан бирга, медиамаркетинг ривожига, муаллиф, ношир ва китобхон учун самарали мултимедиавий платформа ва форматлар юзага келишига замин яратишимиз мумкин. Фикримизча улар қуйидагилар: босма ОАВнинг онлайн форматлари аудиториясини кўпайтириш; медианинг бизнес стратегиясини шакллантириш;

конвергент материал ёрдамида баддий (илмий) асарни электрон сотиб олиш учун иловаларни киритиш;

конвергент материал QR-коди га китобхонлик мавзуси акс этган Webpage, YouTube ва бошқа оммабop саҳифаларга ҳавоаларни киритиш; китобнинг mp3 аудиоматинини юклаш бўйича илова бериш;

конвергент материал QR-коди орқали китобларнинг электрон каталогига илова бериш;

конвергент материал QR-коди ёрдамида онлайн китоб савдоси бўйича машҳур сайтларга илова бериш ва ҳ.

Хулоса қилиб айтганда, Интернет жадал суръатлар билан ривожланаётган бугунги даврда «Vatanparvar» бирлашган таҳририяти конвергенция жараёнини китоб ҳамда китобхонлик бўйича ахборот йиғиш ва тарқатишда фаол қўллаши жамиятда, хусусан, ёшларда, энг муҳими, Ватан ҳимоячилари юксак маънавий-маърифий тарбиясида самара бериши мумкин.

Алижон САҒАРОВ,
Ўзбекистон Журналистика ва
оммавий коммуникациялар
университети кафедра мудири,
филология фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

HAR BIR YEVRUPALIKNI LOL QOLDIRGAN, AMMO...

uch xonlik davri harbiy tarixiga oid

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi fondida O'zbekiston hududida joylashgan davlatlarning harbiy ishlariga doir ko'plab qimmatli ma'lumotlar bor. Xususan, arxiv materiallari xonliklarning muayyan tuzilishiga ega muntazam, shuning bilan birga muntazam bo'lmagan, faqat jangovar harakatlar uchun yig'iladigan lashkar bo'linmalari haqida batafsil hikoya qiladi.

Sirdaryodan Markaziy Afg'onistongacha cho'zilgan katta imperiya hukmdoriga aylangan Shayboniyxon lashkari otliq va piyodalardan tashkil topib, asosan o'q-yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin) kabilar bilan qurollangan. Shayboniy qo'shinining jangovar tartibi hamda jang olib borishda Chingizxon va Amir Temur taktikasiga asoslangan. Raqibga alohida qismlar bilan hujum qilish, qanotdan aylanib o'tib qurshovga olish, orqadan hujum, soxta harakatlar kabi usullar qo'llangan. Jang olib borishning eng samarali usullaridan biri "to'lg'ama" edi.

Kuchli davlat qurishga bo'lgan intilish Abdullaxon II nomi bilan bog'liq. U Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Hirot, Xorazm hokimlariga qarshi bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirdi. Abdullaxon II davrida xorijdan keltirilgan o'tsochar piltta qurollar hamda kichik to'plardan foydalanish boshlangan. Abdullaxon II davrida (1557-yilda) poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi va Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb ataldi.

XVIII asr boshida Qo'qon xonligi vujudga keldi. U XIX asrning birinchi choragida Toshkent, Yettisuvning bir qismi, deyarli butun Sirdaryo havzasi va boshqa hududlarni o'z ichiga olgan. XVIII – XIX asrlarda xonliklar qo'shinlari asosan nomuntazam, tajribali otliq jangchilar – navkarlardan va urush holatida to'planadigan "qoracherik", "qorakaltak", "qilquyruq" kabi ko'ngilli lashkarlardan tarkib topgan. Harbiy libos qizil va moviy chopon, sariq shim va oq salladan iborat edi.

Navkarlar, otda jang qilgan, zarur bo'lganda piyoda jangchiga ham aylangan. Safdagi qo'shinlardan tashqari, xonlarning shaxsiy qo'riqchilari va saroy soqchilari – otliq qism (purta, qurchin) mavjud bo'lgan. Tig'li qurollarning deyarli barcha turlaridan foydalanilgan, XVI asr o'rtasida esa o'qotar qurollar qo'llanilgan.

Amir Haydar (1800–1826) hukmronligi davrida Buxoroning harbiy kuchlari ikki qismga – muntazam "navkariya" va muntazam bo'lmagan "qora cherik"ka bo'lingan. Buxoro amiri Nasrullo (1827–1860) tomonidan o'tkazilgan harbiy islohotlar natijasida muntazam qo'shin tuzilib, u piyodalar (sarbozlar) va artilleriya (to'pchilar)dan tashkil topgan.

Piyodalar soni to'pchilardan 3,5 barobar ko'p bo'lgan. XIX asrning 30-yillarida amirlikda 19 000 harbiy bo'lgan. XIX asr o'rtalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, sarbozlar bo'linmasi 700 kishidan iborat bo'lib, 7 ta rota (dasta)ga, har bir rota 2 ta yarim rota (nim dasta), 4 ta vzvod (rasad) va 8 ta yarim vzvod (bara)ga bo'lingan. 100 kishidan iborat bo'lgan harbiy qo'shilmani yuzboshi boshqargan, uning yordamchisi qorovulbegi bo'lgan, 50 kishilik rasadni panjaboshi boshqarib, 10 kishilik sarbozlar guruhiga dahboshi boshchilik qilgan. Sarbozlar va to'pchilar kiyimi qizil, qora va sariq suknodan tikilgan kamzul, oq kolenkor shim, qorako'l telpak va bir juft etikdan iborat bo'lgan. Muntazam qo'shinlarni kiyim va qurol-aslaha bilan ta'minlash davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan.

XIX asrning boshida Xiva xonligida 2 000 harbiydan tarkib topgan muntazam qo'shin tuzilgan. Xon navkarlari deb ataluvchi ushbu qo'shilma tinchlik davrida xon va uning oilasini qo'riqlagan. Ularga ma'lum bir imtiyozlar berilgan. Buxoro va Qo'qon xonliklaridan farqli ravishda ularda maxsus harbiy kiyimlar bo'lmay, odatda, turli xil choponlar kiyilgan.

Barcha xonliklarda Oliy bosh qo'mondon xonlar hisoblangan. Harbiy kuchlarga boshchilik vazifasini Buxoro amirligida parvonachi, Xivada yasovulboshi, Qo'qon xonligida mingboshi amalga oshirgan.

Harbiy harakatlarni rejalashtirish, harbiy kuchlarni taqsimlash masalalari naqiblar zimmasida bo'lgan.

Harbiy harakatlar vaqtida harbiy kuchlar quyidagicha taqsimlangan: oldinda avangard, uning ortidan ar'yergard borgan, ularni chap va o'ng qanot, markaz va pistirmadan tarkib topgan qo'shinlar yakunlagan.

Qo'shinlar jangga bayroqlar va tug'lar bilan kirgan. Qo'shinlarda, shuningdek, musiqachilar – karnaychi, surnaychi, nog'orachi, naychi, do'lchi va boshqalar ham bo'lgan. Qo'shinlar bilan birga hunarmandlar, savdogarlar, yo'llarni tozalab ko'priklar quruvchi ishchilar ham borgan.

Xonliklarda muntazam ravishda harbiy ko'rik o'tkazilgan.

Xonliklardagi nomdor jangchilarning himoya aslahasi turli xildagi halqa-parchinli sovutlar, yumaloq konussimon dubulg'alar, tirsak saqlagichlar, oyoqlarni

himoya qiluvchi vositalar va qalqonlardan iborat bo'lgan. XVI–XVII asrlarda halqa-parchinli sovutlarning keng tarqalgan turi baktarlar, ko'krakpo'sh va yelkapo'sh bo'lib, ular parchindan 3-9 qator terib tayyorlangan, libosning yengi va pochasi sovutdan bo'lgan. Og'ir baktarlar parchin bilan deyarli to'liq qoplangan. Temir sovutlar tez qizib ketganligi bois askarlar isib ketmasligi uchun jang liboslari ustidan chopon kiyishgan.

Jang liboslarining eng ko'p tarqalgan turlari parchin qoplangan zirhlar, mashhur kuyaklar bo'lib, unda parchinlar ichki tomondan shunday qoplangan ediki, tashqaridan faqat parchin qatorlarigina ko'rinar edi, xolos. Metall parchalari qadalgan qavima paxtalik chopon kiyilgan. Oddiy jangchilar – navkarlarning himoya vositalari orasida sovut muhim rol o'ynagan. Sovut ichidan, odatda, qalin chopon yoxud charm chakmon kiyilgan.

Shakli va qoplanish usuliga ko'ra sovutning bir necha turi bo'lgan. Qurolli Kuchlar davlat muzeyi fondida XVI–XVIII asrlarga oid yengi va etagi kalta ko'ylaksifat, pastak zirh yoqali sovutlar saqlanmoqda. Sovutning halqachalari qisqich – mix bilan ikki taraflama mahkamlangan. Halqachali va halqa parchinli jang liboslari himoyalash xususiyatlariga egaligi, nisbatan yengil va qulay bo'lganligi uchun keng tarqalgan.

Muzey eksponatlarida XVI–XVIII asrlarga oid turli bosh kiyimlar jamlangan. Ular orasida yumaloq konussimon, yaxlit quyma temir qubbali, keng parchinsimon gardishli, tepa qisqa konussimon va uzun parchinbop burun po'shi bo'lgan dubulg'alar bor. Dubulg'alardan tashqari zirhli bosh kiyimlar (missyurkalar) uchraydi.

Jangovar otlar chingiziylar davridan beri zirhli to'shama (jul)lar bilan himoyalab kelingan. Ular ikki yonlik, sag'rinpo'sh, ko'krakpo'sh, bo'yinbog' va peshanabog'dan iborat bo'lib, tizimcha bilan o'rigan uzun charm tasmlardan jamlangan va paxta tiqib qavilgan. Ayrim qismlariga yaltiroq temir parchinlar birlashtirilgan. XVII asrda otlar boshi charm va temir niqob bilan ham himoyalangan.

Qurol-yarog'lar Eron, Rossiya, Jung'oriya, shuningdek, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ham keltirilgan. O'z navbatida, O'rta Osiyo qurolsozlari mahsulotlari boshqa davlatlarga ham eksport qilingan. "Rusning XVI asrda tashqariga chiqarilgan va chetdan keltirilgan eng muhim buyumlari ro'yxati"da O'rta Osiyoga qurol-yarog' eksport qilish charm va mo'ynadan so'ng uchinchi o'rinni, import esa gazlama, tayyor to'qimachilik buyumlari va bo'yoqdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallagan.

XVI asr o'rtalariga kelib, mis yoki temir stvulli, dastlab piltali, so'ng burama kerkikli (soyli) miltqlardan muntazam foydalanishga o'tilgan, biroq bunday miltqlar juda oz bo'lgan. 1886-yilda O'ratepa shahri Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerda to'p va yadro toshlar, miltiq va tig'li qurollar tayyorlanadigan metall quyish zavodi, bir porox zavodi borligi aniqlangan. M.S. Bekchurin ishlab chiqarilgan buyumlarning sifatini yuqori baholagan: "Bu zavodlarning tuzilishi ancha sodda, hatto yomon deb aytish mumkin. Lekin shunga qaramay mis to'plar shu qadar yaxshiki, o'zining pardozi bilan artilleriya ishidan oz-moz xabardor bo'lgan har bir yevropalikni lol qoldiradi".

XVI–XIX asrlarda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida turli tarixiy jarayonlarni bosib o'tdi. Fan, madaniyat va me'morchilik, sun'iy sug'orish va qurilish sohalarida bir qancha ijobiy yutuqlarga erishildi. Lekin xonliklarning o'zaro murosasizligi, siyosiy qarama-qarshiliklar og'ir iqtisodiy shart-sharoitni vujudga keltirdi.

Behisob tabiiy boyliklar va keng imkoniyatlarga ega bo'lgan bu o'lka xonliklarining siyosiy-harbiy jihatdan zaifligi va tarqoqligi tufayli inqirozga yuz tutdi.

Narimon RAHIMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari
davlat muzeyi
direktori o'rinbosari



SAVOLGA, SAMIMIYATGA BOY MULOQOT

Harbiy qism hovlisi bo'ylab ko'rgazmalarni kuzatib chiqayotgan umumta'lim maktabi o'quvchilarining hayrati va qiziqishlariga havasingiz keladi. Ushlab, sinab ko'rishga uringani qaysi, savollarga ko'mib tashlagani qaysi? Yana biri tezroq ulg'ayib parashyut bilan sakrashni istab qoldi.

Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlariga qarashli Chirchiq shahrida joylashgan harbiy qismlardan birida o'tkazilgan ochiq eshiklar kuni, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik

kengashi a'zolari bilan uchrashuv ana shunday taassurotlarga boy bo'ldi.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda yoshlar bilan muloqot chog'ida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi, kinorejissyor

Hilol Nasimov, aktrisa Gulnoza Saidova, aktyorlar Umid Shodmonov va Zohidjon Shomurodov, shoira Gulchehra Ibragimova, xonanda Mahfuza Davronova o'zlarining dil izhorlarini bildirib, kuy-qo'shiqlar ijro etdilar.

Xalqaro xotin-qizlar bayramiga ulanib ketgan madaniy tadbirda xalq va armiya yakdilligi yo'lida faollik ko'rsatayotgan mutasaddilar taqdirlandilar.

Abdulla O'KTAMQULOV

#Harbiy-vatanparvarlik

“RAHBAR VA YOSHLAR” UCHRASHUVI

Bahrom ABDURAHIMOV



Bugun Qurolli Kuchlar akademiyasi har qachongidan ham gavjum bo'ldi. Bu yerda Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmasi hamkorligida poytaxt umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida “Rahbar va yoshlar” deb nomlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbir avvalida o'quvchilarga mamlakatimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari, Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilgan islohotlar haqida ma'lumotlar berildi.

Akademiya boshlig'i polkovnik Babur Shayakubov o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Akademiya faoliyatiga bag'ishlangan maxsus film katta qiziqish bilan kutib olindi. Faol o'quvchilarning rag'batlantirilishi kutilmagan voqea bo'ldi.

Shuningdek, o'quvchilar zamonaviy o'quv sinflari, axborot-resurs markazi, kursantlarning yashash sharoitlari bilan tanishdilar.

Uchrashuv o'quvchilarga bir olam unutilmas taassurotlar qoldirgani ularning quvnoq g'ovurlaridan ham anglashilib turardi.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

#Huquqiy targ'ibot

YANGI O'ZBEKISTON UCHUN BIRLASHAYLIK

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Shu bois harbiy prokuratura organlari tomonidan qo'mondonliklar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida korrupsiya illatiga qarshi kurashishga qaratilgan qator targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan garnizondagi harbiy qismlarning birida “Korrupsiyadan xoli Yangi O'zbekiston uchun birlashaylik” shiori ostida targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Unda Chirchiq harbiy prokurori Akbar Boboyev, Toshkent harbiy okrugi

qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Zokir Sayfutdinov ishtirok etdi.

Tadbirda mamlakatimizda korrupsion jinoyatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda qonunchilikka kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda bu turdagi jinoyatga qo'l urgan shaxslarga

nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan jazo turlari haqida atroflicha tushuntirishlar berildi.

Adliya mayori
Sultanmurad KALENDEROV,
Chirchiq harbiy prokurorining
katta yordamchisi



O'ZBEKISTON TIBBIYOTINING G'ALABAGA QO'SHGAN TARIXIY HISSASI

Ikkinchi jahon urushi boshlangan davrda O'zbekiston aholisi 6,5 million kishi bo'lib, shulardan 1 951 000 dan ortig'i muhorabada qatnashdi. Vatandoshlarimizdan 538 mingdan ortig'i halok bo'ldi, 896 402 nafari urushdan qaytmadi. Agar aholining yarmini ayollar, bolalar va keksalar tashkil etishi hisobga olinsa, mehnatga yaroqli aholining 40 foizdan ortig'i frontda jang qilgani ma'lum bo'ladi.

O'zbekistondan ushbu dahshatli urushga safarbar etilganlardan 158 000 dan ziyodi bedarak yo'qoldi, 800 mingga yaqin kishi nogiron bo'lib qaytdi. Yuz minglab vatandoshlarimiz mehnat frontida zahmat chekdi, xalqimiz o'zi yemasdan, kiymasdan topgan nasibasini frontga jo'natib, azob-uqubatlarni tortdi. O'zbekistonliklarning urushda ko'rsatgan mardligi va jasorati yuqori baholanib, 120 ming o'zbekistonlik jangchi, jumladan, 70 ming o'zbek yigit va qizlari orden-medallar bilan mukofotlandi. 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni, 82 nafari uchala darajadagi "Slava" ("Shuhrat") ordeniga sazovor bo'ldi. Qo'lga kiritilgan g'alabadan ko'p millatli xalqimiz tibbiyot sohasi vakillarining alohida o'rni bor. O'zbekiston ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan qimmatli ma'lumotlar asosida O'zbekiston tibbiyot sohasining mazkur urushdagi g'alabaga qo'shgan salmoqli ulushi va jasorat ko'rsatgan shifokorlar xususida to'xtalishga jazo etdik.

Urush davrida respublikadagi tibbiyot xodimlari o'z ish tartiblarini tubdan o'zgartirdilar. Ko'pgina tibbiyot muassasalarida yangi mehnat tartibi joriy qilindi. Ish kuni uzaytirildi, ishdan keyin qolib ishlash joriy etildi, mehnat ta'tillari, dam olish kunlari bekor qilindi. Qisqa qilib aytganda, tibbiyot xodimlari ham "hamma narsa front uchun" degan g'oya asosida ish yuritdilar.

Urush davrlarida Gemotologiya va qon quyish ilmiy tadqiqot instituti qon va zardob yetkazib berishda ulkan ishlarni amalga oshirgan. Institut jamoasining fidokorona mehnati tufayli ko'plab Vatan himoyachilarining hayoti saqlab qoling. Arxiv hujjatlariga ko'ra, butun urush davomida sobiq Ittifoq qon quyish instituti bo'limlari tomonidan frontga jami 1 600 tonna konservalangan qon yetkazib berilgan. Samolyotlar yordamida qon quyish stansiyalaridan millionlab shisha idishlarda qon va zardoblar frontning tibbiy muassasalariga yetkazilgan.

Shuningdek, urushda ishtirok etib yaralanganlarni davolash va frontga qaytarish maqsadida respublikamiz hududi, jumladan, Toshkentning turli manzillarida evakuatsiya gospitalari tashkil etildi. Shulardan biri Toshkent shahridagi 400 o'rindan iborat 3663-sonli evakogospitaldir. Uning 270 o'rni ortopedik travmatologiya bo'limiga ajratilgan. Tibbiyot xodimlari urushga jalb qilinganidan so'ng respublikada tibbiyot xodimlarining yetishmovchiligi yuz bergan. Masalan, 1943-yilda O'zbekistonda respublika byudjetidan hududlarda 5 857 ta vrachlik lavozimi ko'zda tutilgan bo'lib,

lekin amalda 4 827 vrach mavjudligi qayd etilgan. Shu bilan birga, urush davrida front hamda front ortida mehnat qilayotgan harbiylar va ishchilarning sog'liqlarini tiklash, ularni urushga qayta tayyorlash maqsadida O'zbekiston tibbiyot sohasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan taniqli tibbiyot olimlari ham jalb qilingan.

Jumladan, 1941-yilda Toshkent tibbiyot institutining bitiruvchilari Karim Ahmedov, Asolat Kadirova, Xamida Gumarova, Ergash Yusupov, Jalil Nurmuhammedov kabi bir qator taniqli tibbiyot olimlari urushga safarbar etilib, yarador hamda bemorlarni davolashda mardonavor mehnat qilgan. Masalan, shifokor Usmon Mirahmedov Ukrainaning Jitomir viloyatidagi tank qismida vrach vazifasida xizmat qilib, urushning birinchi kunidan g'alabagacha jangovar safda bo'lgan.

Uning urush haqida yozgan xotiralarida quyidagi satrlarni o'qishimiz mumkin: "Polk og'ir talafotlar bilan Rovno shahriga, undan Dubnaga yetib keldi. Nemislar yo'lda dam olmay charchagan tank qismiga artileriya batalyoni, bronetank polki, havo eskadrilyasi va boshqa kuchlar bilan hujum qilardi. Soldatlarimiz qarshi hujumni mardonavor qaytarib turgan bir paytda yonimga bir tank kelib to'xtaydi. Tapa lyuk ochilib, undan serjant pastga sakrab tushadi. "O'rtoq vrach, 2-batalyon komandirining tanki yonib ketdi, o'zi suv bo'yida og'ir yaralanib yotibdi". Tank og'ir silkindi-yu, old tomonga ilgarilab ketdi. Komandirning butun badani kuygan, o'zi esa hushsiz yotardi. Unga darrov qon quyish kerak edi.

Shu payt tank oldi portlab ketdi. "Otishyapti!", "Bizni ko'rib qolishdi!" qichqirdi mexanik-haydovchi. Batalon komandirini tankda orqaga sanitar mashinasi oldiga olib kelishdi. Yaradorlar to'la mashina front orqasiga yelib ketdi. Usmon Mirahmedov yaradorlarga yordam berar, yaralarni bog'lar, dori-darmon qilardi. U bir necha bor o'lim bilan yuzma-yuz kelgan. Gomel uchun kurashda shundoqqina yoniga bomba tushgan. Shifokor ko'p marta yarador bo'lgan, ikki bor kontuziyaga uchragan. Lekin u butun kuchini fashistlariga qarshi kurashga, jangchilarini davolashga sarflagan. Dushmani quvib, Berlingacha borgan. G'alabadan so'ng yana bir yil xizmatni davom ettirgan. Usmon Mirahmedov II darajali "Ulug' Vatan urushi", "Qizil yulduz" ordenlari bilan taqdirlangan.



Qahramonimiz ona Vatan oldidagi burchini o'tab qaytgach, Toshkent tibbiyot institutining Teri-tanosil kasalliklari kafedrasiga ordinator bo'lib ishga kirdi. So'ng nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. Tinmay ilmiy izlanishda bo'lgan olimning 320 dan ortiq ilmiy ishi nashr etildi. Bir qancha kitob va monografiyalar yozdi. 1988-yil olimga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni berildi.

Frontda jasorat ko'rsatgan o'zbek o'g'lonlaridan yana biri professor D. Maksumov 1942-yilda Toshkent tibbiyot institutining Davolash fakultetini bitirgach, 1946-yilgacha harbiy harakatlarda faol ishtirok etgan. U Moskva okrugining maxsus 24-havo desant qo'shinining medik-sanitar xizmati boshlig'i, Nikopol tank brigadasi komandiri, Xarkov oblasti Chugayev shahri harbiy lazaretining boshlig'i bo'lgan. Xarkov viloyati *Maloy Kamishovka qishlog'ida janglarda yaralanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish vaqtida jiddiy yaralandi va qisqa muddatli davolanishdan so'ng yana jang maydonlariga qaytdi.*

2-sonli tank brigadasining siyosiy masalalar bo'yicha qo'mondon o'rinbosari A. Glyamshin shunday deb yozgandi: "Maksumov 1943-yil yanvar oyidan beri harbiy qismda bo'lgan paytida o'zini bilimdon va g'amxo'r shifokor sifatida ko'rsatdi. Dushman bilan bo'lgan janglarda qatnashgan, shu bilan birga, yarador askar va komandirlarni kasalxonaga evakuatsiya qilishni tashkil etgan va jang davomida ko'plab askarlarning hayotini saqlab qolgan". D. Maksumov Vatan oldidagi ulkan xizmatlari uchun I darajali "Ikkinchi jahon urushi" ordeni, "Mehnat qizil bayrog'i", "Qizil yulduz", "Harbiy xizmatlari uchun", "Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medallari bilan taqdirlangan.

Shifokor-jangchi qahramonlarimizdan yana biri Nasretdin Shamatov



1915-yilda Toshkent viloyatining Pskent tumanida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridan to oxirigacha tibbiy-sanitar batalyon hamda harakatdagi 1-Ukraina frontida bosh jarroh vazifasida ishlagan. Urush tugagandan so'ng u O'zbekiston travmatologiya va ortopediya ilmiy-tekshirish institutida o'z faoliyatini davom ettiradi. Ko'plab shogirdlar tayyorladi. Olim tomonidan 240 dan ortiq ilmiy ish nashr etilgan. Uning rahbarligida 34 ta nomzodlik va doktorlik ishi himoya qilingan. U ulkan xizmatlari uchun II darajali "Ulug' Vatan urushi", "Qizil yulduz" ordenlari hamda ko'plab medallar bilan taqdirlangan.

V. Feybushevich ham urushda ishtirok etgan o'zbekistonlik shifokorlardan. U 1941–1945-yillarda harakatdagi armiya tarkibida frontda qatnashib, 180 varaqdan iborat "Zapiski voyennogo vracha" nomli eslatmalarida urushdagi dahshatli hodisalar, insonlarning o'limi, shifokorlarning frontdagi harakatlari haqida jumladan shunday yozgan: "Shifokor va hamshiralar yaradorlarni qutqarish uchun hamma narsalarini berishga tayyor, bilimlarini, kuchlarini hattoki o'z qonlarini ham. Ayrim hollarda, afsuski, bizning harakatlarimiz behuda ketmoqda, o'lim oldida tibbiyot qanchalik ojiz, biz qanchalik ojizmiz". V. Feybushevich I darajali "Ulug' Vatan urushi", "Qizil Yulduz" ordenlari, "Ikkinchi jahon urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medali bilan taqdirlangan.

Urush maydonlarida faol harakat qilgan, jangchilarning salomatligini asrash va qayta jangga tiklashga ulkan hissa qo'shgan o'zbekistonlik shifokorlardan yana biri A. Vaynbir. U 4064-evakogospitalning harbiy shifokori bo'lgan. U fizioterapiya bo'limi ochilishi, jismoniy tarbiya mashqlarini olib borish uchun xonalar ajratilishida jonbozlik ko'rsatgan. Uning faol harakatlari bilan evakogospitalga rentgen apparatlari o'rnatilgan. Vaynbir xizmatlari uchun hukumat tomonidan ko'plab tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

E'tibor berilsa, urushda ishtirok etgan aksariyat qahramon shifokor jangchilarimiz urushdan keyin ham o'z faoliyatlarini faol davom ettirib, Vatanning ilm-fan rivojivataaraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. O'zlaridan keyin ham tajribali shogirdlarni xalq koriga kamarbasta qilib yetishtirishda munosib hissa qo'shgan.

Zinur BOZOROV,
"Shon-sharaf" davlat muzeyi
ilmiy xodimi

ЕВРОПА МАМЛАКАТЛАРИДА ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ

ВА ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ТИЗИМЛАРИ



“

Замонавий босқичда Европа давлатларида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар жиноятчиликнинг олдини олишнинг энг самарали усули сифатида патруллик қилишни афзал кўради.

”

Хусусан, ушбу мамлакатларда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолияти жамоат полиция кучлари, хусусий хавфсизлик идоралари, Қуролли Кучлар, турли хил назорат ҳамда тергов ваколатларига эга ҳукумат идоралари томонидан амалга оширилса-да, ушбу органларнинг энг таниқлиси бу – жамоат жойларида пиёда ва автомобилларда патруллик қиладиган жамоат полиция кучлари ҳисобланади. Доимий равишда патруль хизматини ташкил қилиш ва кучайтиришга катта эътибор берилиб, у ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларида асосий, мустақил ва жуда кўп сонли тузилма сифатида намоён бўлади.

Европа давлатлари орасида жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш, жиноятчиликка қарши кураш соҳасида ўзига хос жиҳатга эга бўлган тизим Францияда шаклланган. Францияда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш тизими Европадаги энг қадимги тизимлардан биридир.

Франция жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш тизими юқори даражада марказлашган бўлиб, ушбу функцияларни амалга ошириш учун миллий полиция ва жандармерия масъул ҳисобланади. Мамлакатдаги шаҳар аҳоли пунктларида жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш учун миллий полиция, қишлоқ ҳудудларида эса жандармерия жавобгар ҳисобланади. Шунингдек, оммавий тадбирлар ўтказилганда ва оммавий тартибсизликлар юзага келганда жамоат тартибини сақлаш Давлат хавфсизлик полицияси (Républicaines de Sécurité) таркибидаги ҳарбий қисм томонидан амалга оширилади.

Шу билан бир қаторда, Франциянинг тўлиқ маҳаллий бюджет ҳисобидан таъминланадиган муниципал полицияси ташкил этилган бўлиб, у шаҳарлар ва бошқа аҳоли тураржойларида жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлашни амалга оширади ҳамда бу борада миллий полиция билан узлуксиз ҳамкорликда фаолият олиб боради. Таъкидлаш жоизки, жамоат хавфсизлигини, аҳолининг тинчлиги ва осийишталигини таъминлашда Франция жандармерияси муҳим ўрин тутди. Жумладан, Франция жандармериясининг энг асосий вазифаларидан бири – жамоат тартиби ва хавфсизлигини, шунингдек, у фуқаролар ва уларнинг мулклари хавфсизлигини таъминлайди, тезкор-қидирув ва жиноятларнинг олдини олиш тадбирларида иштирок этади. Шу билан бирга, ҳукумат, давлат идоралари ва чет эл элчихоналари биноларини қўриқлаш вазифаси

ҳам уларнинг зиммасига юклатилган бўлиб, мамлакатда асосий вазифаси жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш бўлган кўча жандармериялар фаолияти ҳам йўлга қўйилган.

Франция жандармерияси тергов ва полициянинг кундалик бошқа вазифаларини амалга оширишга ихтисослашган идоравий жандармерия ҳамда асосий вазифаси жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўлган мобил жандармерияга бўлинса-да, мамлакатда Денгиз, Ҳаво транспорти ва Ҳаво жандармериялари ҳам мавжуд. Францияда патруллик хизмати асосан аҳолиси 10 мингдан ошқ бўлган шаҳарларда ташкил этилади ҳамда патруль бўлинмалари ўз фаолиятини турлича, хусусан, автопатруль, мотопатруль, велопатруль, отлик патруль ва пиёда патруль шаклида олиб боради. Патруль бўлинмалари умумий шахсий таркибнинг 60 фоизини ташкил этади.

Европа давлатлари орасида юқорида келтирилган тажрибага ўхшаган тизим Италия, Испания ва Туркия каби етакчи давлатларда ҳам шаклланган. Хусусан, Италияда ҳозирги вақтда полиция функциясини бажарувчи учта ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган мавжуд бўлиб, уларнинг барчаси турли хил ташкилий тузилмалар ва бўйсунувларга эга. 1852 йилда ташкил этилган Давлат полицияси ёки жамоат хавфсизлиги полицияси мавжуд бўлиб, Ички ишлар вазирлиги таркибига киради. Шунингдек, мамлакатда 1814 йилда Франция жандармерияси модели асосида ташкил этилган Карабинер корпуси ва 1907 йилда ташкил этилган Молия гвардияси корпуси фаолият олиб боради.

Италияда ҳам давлат полицияси тизимларига кирмайдиган ва 10 мингдан ортиқ одам яшайдиган шаҳарларда ташкил қилинган муниципал полициялар мавжуд бўлиб, улар ҳокимиятнинг бюджети томонидан молиялаштирилади ва тегишли шаҳар муниципалитетига бўйсунди. Ушбу полиция шаҳарда олиб бориладиган турли оператив-тергов ва бошқа тадбирларда Давлат полициясининг захираси ҳисобланади. Унинг асосий вазифаси ҳудудда жамоат тартибини сақлашда патруль хизматини олиб бориш, шаҳар ҳокими буйруқларининг бажарилишини назорат қилиш, бозорларда жамоат тартибини сақлаш, аҳоли пунктларининг санитария ҳолатини назорат қилиш ва йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашдан иборат. Ушбу патруль бўлинмалари хизматни пиёда, полицияга мўлжалланган автоуловлар ва мотоциклларда олиб борадилар. Баъзи шаҳарларда улар хизмат итлари ҳамда отлардан ҳам фойдаланадилар.

Жамоат тартиби ва хавфсизлиги соҳасидаги вазифалар ўзаро бир-бирига бўйсунмайдиган бир нечта мустақил, махсус ҳуқуқий мақомга эга бўлган полиция ташкилотлари томонидан амалга оширилса-да, Давлат полицияси уларнинг фаолиятини мувофиқлаштириб боради. Таъкидлаш жоизки, Италия жандармерияси, яъни Карабинер корпуси фаолияти вазирликлараро хусусиятга эга бўлиб, Мудофаа, Ички ишлар вазирликлари ва суд ҳокимияти манфаатларидан келиб чиқувчи вазифаларни бажаришдан ташқари, Корпус шахсий таркиби жамоат хавфсизлигини таъминлашда ташқи



қуролланган ҳарбий бўлинмаси ҳисобланади. Унинг асосий вазифаси – қишлоқ ҳудудларида жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш бўлиб, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, контрабанда ҳолатларини аниқлаш ва тергов қилиш, ҳуқуқбузарларни аниқлаш, ҳибсга олиш ва ташвиш, мамлакатнинг ҳарбий қарорлари ва қоидаларига риоя этилишини назорат қилиш каби функцияларни ҳам бажаради.

Бундан ташқари, Европа мамлакатлари орасида маъмурий ҳудудларда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш соҳасида яна бир ўзига хос тизим Германияда қарор топган. Мамлакатда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш тизими марказлашмаган бўлиб, ушбу фаолият асосан муниципал полицияларнинг зиммасига тушади. Мамлакатдаги муниципал полицияларнинг асосий вазифалари ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, оммавий тадбирлар вақтида жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш, жамоат жойларида тартибни сақлаш, алоҳида аҳамиятга эга иншоот ва ҳукумат биноларини қўриқлаб бориш, йўлларда ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш, маҳаллий фуқаро мудофаасини амалга ошириш, ёнгин хавфсизлиги, санитария-эпидемиология ва бозорларда савдо қилиш қоидаларига риоя этилишини ҳамда қаровсиз қолган вояга етмаганларни назорат қилишдан иборат.

Шунингдек, Германияда аҳоли тураржойларида жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш билан шуғулланувчи энг кўп тузилмалар тартибни сақлаш пунктлари ҳисобланади. Улар турли жойларда турлича: Бош полиция вахталари, полиция вахталари, полиция станциялари, полиция постлари, полиция инспекциялари каби номланиб, кечаю кундуз фаолият кўрсатади.

Бундан ташқари, жамоат тартибини сақлаш учун кўнгилли полиция хизмати йўлга қўйилган бўлиб, унга ушбу вазифаларни бажаришга лаёқатлилиги текширувдан ўтказилган ва икки ҳафталик дастлабки тайёргарликдан ўтган кўнгилли фуқаролар қабул қилиниб, 10–15 нафари бир гуруҳга бирлашган ҳолда хизмат олиб бориши йўлга қўйилган. Кўнгилли полиция хизмати аъзолари оммавий тартибсизликлар юзага келганда, йўқолган инсонларни қидириш ишларида ҳамда фаолиятни кучайтириш талаб этиладиган бошқа ҳолатларда полицияга яқиндан ёрдам кўрсатадилар. Бунинг учун уларга белгиланган микдорда пул мукофотлари бериб борилади.

Умуман олганда, Европа давлатларида жамоат тартибини сақлаш, оммавий тадбирларни ўтказиш чоғида хавфсизлигини таъминлаш, техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этиш каби вазифаларни амалга ошириш учун алоҳида сараланган ҳарбий бўлинма ҳисобланган жандармериялар ташкил этилган.

Хулоса қилиб айтганда, давлатнинг ҳар бир ҳудудида, шу қатори узоқ қишлоқларда ҳам, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан куну тун хизматни ташкил қилиш, маҳаллий аҳоли билан яқин алоқада бўлиш ва уларнинг муаммоларини ўз вақтида ҳал этиш жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини самарали таъминлашга асос бўла олади.

**Дилшод ХАЛМУХАМЕДОВ,
мустақил тадқиқотчи**

КИТОБ ЎҚИЛМАГАН КУН –

СУХБАТДОШ ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ:

Баҳодир КАРИМ, филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси.

1984–1986 йилларда Приморье ўлкасида икки йил ҳарбий хизматда бўлган. ЎзМУ Ўзбек филологияси факультетида ўқиган. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида ишлайди.

«Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд», «Қодирий қадри», «Адабиётшунослик методологияси», «Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур», «Рухият алифбоси», «Истиқлол адабиёти: назм ва наср» каби китоблари, уч юздан ортиқ илмий-адабий мақоласи нашр бўлган.

– СУХБАТИМИЗНИ УЛУҒ АЛИШЕР НАВОИДАН БОШЛАСАК, У ЗОТ КЎПРОҚ ҚАНДАЙ АСАРЛАРНИ ЎҚИГАН?

– Алишер Навоий йигитлик палласида ўзигача бўлган ва замондош жуда кўп шоирларнинг шеърларидан эллик минг байт ёд билгани ҳақида маълумот бор. Шу билан бирга, барча хамсанависларни ўқигани табиий. Агар ҳазрат Навоий ёзган асарларга диққат қилинса, улардан айримларини тарихий асарларни ўқимасдан ёзиш имконсиз экани маълум бўлади. Масалан, «Тарихи анбиё ва ҳукамо». Демак, анбиё, яъни пайғамбарлар тарихини, ҳакимлар ҳаёти ва ижодини ўргангани ҳам табиий. Фариддин Атторнинг «Мантиқ ут-тайр» асарини нафақат ўқиган, балки ёд олган. «Зафарнома» муаллифи Шарафиддин Али Яздий билан болалик пайтида учрашиб қолганида суҳбатлашиб, унда дуо олиш асносида Қуръони Каримнинг «Мулк» сурасигача ўқиганини айтади. Мумтоз шоирлар, жумладан, Алишер Навоий учун Аллоҳнинг китобини ўқиш, ёд олиш, Пайғамбаримиз ҳадисларини ўқиб-ўрганиш жуда табиий бир ҳодиса саналади. Шунинг учун ҳам уларнинг илҳом булоқлари то умрларининг охиригача сўнгган эмас. Тўғриси, билагонлик қилиб, бу саволга манбалардан Алишер Навоий ўқиган асарларнинг рўйхатини атай излаганим йўқ. Аммо бир ҳақиқатга аминманки, китобни яхши кўрган, кўп ўқиган, уққан ва уларни ўз шуурига жойлаган ҳамда уларга амал қилган ижодкоргина Навоий бўлиши мумкин.

– ҲАЗРАТНИНГ КУТУБХОНАСИДА ҚАНДАЙ КИТОБЛАР БЎЛГАН-ЛИГИ БОРАСИДА МАЪЛУМОТ БОРМИ?

– Жуда муҳим савол. Уларнинг дунёқараши, эстетик диди қандай шаклланиганини кўрсатади ўша китоблар. Фалакиётга, тиббиётга, тарихга, тафсир илмига, тасаввуф илмига, илми балоғат ва фасоҳатга доир китоблар бўлган, албатта. Тўғриси, китоблар номини яхши

билмайман, бу масалага махсус қизиққанам йўқ. Лекин юқоридаги фикрлар айни саволга ҳам қисман жавоб бўла олади, деб ўйлайман.

– АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ЎЗБЕКОНА ЖОЗИБАЛИ ЁЗИШНИ ҚАНДАЙ ЎРГАНГАН?

– Нега ҳазрат Алишер Навоий замонидан бирдан беш аср сакраб, мавлоно Абдулла Қодирийга сўз ўнқови бурилди? Қодирий қандай китоблар ўқиган деб савол берсангиз, бунга жавоб бор. Чунки Қодирий ўқиган китоблар рўйхати Ҳабибулла Қодирийнинг «Отам ҳақида» китобида келади. Даврнинг ювиқсиз-карчалонлари адиб кутубхонасини талон-торож – мусодара қилишган...

Ўзбеконна жозибали ёзиш? Эҳе-е, бу ишни не-не қаламқошлару қаламқашлар то ҳануз эплай олишгани йўқ! Қодирийга ўхшаб ёзиш учун Қодирий бўлиб дунёга келиш керак. Менимча, биринчи навбатда Худойим унга истеъдод инъом этган эди; сўзнинг раъйини, рангини, таъминини, таъсирини билган у зот. Иккинчидан, кам гапирган, кўп ўйлаган, ҳаёлида кўплаб воқеликлар сюжетни пишитган. Шу эътибордан замондошларидан бири Абдулла Қодирийни яхши маънода «сўз ўғриси эди», деб тавсифлайди. Абдулла Қодирий отасидан, халқ оғзаки ижодидан, жаҳон адабиётидан, «Бобурнома»дан кўп нарсалар ўрганган бўлса керак. «Икки даҳо – икки бебаҳо» (*Бобур ва Қодирий*) деган рисоламда кейинги гапнинг қайсидир маънода исботини берган эдим. Абдулла Қодирий университетларнинг филология ёки журналистика факультетларидан беш йиллаб ўқиган эмас, ҳаёт дарслигидан сабоқ олди.

– ШАХСИЙ КУТУБХОНАГИЗДА ҚАНДАЙ КИТОБЛАР БОР?

– Китобларим кўп. Аммо уларнинг кўплиги билан мақтаниб бўлмайди. Ўқиган китобларим – маънавий бойликларим. Кутубхонамдаги китобларнинг кўпчилиги жуда яхши, қизиқ, маънили. Аммо жавонни бекордан-бекор эгаллаган ва йиллаб

ЯШАЛМАГАН УМР

қўлга олинмайдиганлари ҳам, таассуфки, бор. Ижодкор, у ким бўлишидан қатъи назар, севиб ўқиладиган китобларни ёзиши лозим. Шунда ҳар ким ўз шахсий кутубхонасидаги китоблари билан мақтанади. Уларнинг барини ўқиган бўлади.

– КИТОБНИ ҚАНДАЙ ЎҚИШ КЕРАК, ВАҚТИ-ВАҚТИ БИЛАНМИ ЁКИ ҲАР КУНИ БЕЛГИЛАНГАН САҲИФАНИ ЎҚИШГА ЎРГАНИШ ЛОЗИММИ?

– Китобни кўнгил тусаган маҳали завқ билан ўқиш керак. Тушуниб, англаб, ҳис этиб, энг гўзал, яхши жиҳатларидан кўчирмалар олиб ва ҳар ким ўз ҳаётига татбиқ этиб ўқиш керак. Эснаб, уйқусираб, ижирганиб, бот-бот дўппини ҳидлаб – бундай ўқиш азоб. Китоб ўқиш – жуда муҳим маънавий-маърифий юмуш. Уни бекор қолганда вақтни ўтказиш учун ўқиб бўлмайди... Шахсан ўзим ҳар куни ўқийман, ўқишга ҳаракат қиламан. «Китоб ўқилмаган кун – яшалмаган умр», деган бир ҳаётий ҳикмат ҳам тўқиб қўйганман.

Ўқиш аслида китобнинг табиати, бадииятига, мазмунига, жозибасига, поэтик тилига боғлиқ. Шундай китоблар борки, уларни фаслма-фасл, варақлаб, кўз югуртириб ўқиш мумкин. Шундай китоблар борки, бирор ҳарфи ёки сўзини ташлаб ўқишга одам қизғанади. Бундай чин, ҳаққоний ва умрбоқий китоблар ҳижжалаб ўқилади. Ўз-ўзидан эсда сақланиб ҳам қолади.

– АЙНИ КУНЛАРДА НЕГА ЯХШИ АСАРЛАРГА ҚАРАГАНДА ЁМОН АСАРЛАР ТОШ БОСМОҚДА?

– Шундай асарларни ёзганлардан сўраш керак бу саволни. Тошини топишган бўлса керак. Асар учун тошдан кўра, маъно, маъни, бадиият ва таъсир қуввати муҳим деб ўйлайман. Қаранг, яхши китоб ёзганлар учун мукофотлар берилади.

Бир вақтлар бир гап ҳаёлимда айланиб юрди, шундай бир маърифий-моддий ташкилот бўлсаки, ёмон китоблар ёзиб юрган муаллифларга бир неча йил давомида ёзмагани учун мукофот жорий қилса, қандай бўларкан?!

– СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ҲАМ, БОБУР МИРЗО ҲАМ БУГУНГИ ТИЛДА АЙТГАНДА, ҲАРБИЙ БЎЛИШГАН. УЛАРГА АДАБИЁТ ҚАНДАЙ САБОҚ БЕРГАН?

– Кўнглини, қалбини, дунёқарашини тарбиялаган. Шундай жаҳоншумул саркардаларни ҳаётида китоб жуда катта ўрин тутган деб ўйлайман. Чунки билимсиз, китобсиз одам ҳеч нарсаси эриша олмайди. Кўнглини маърифат фатҳ этмаган одам қандай фотиҳ бўлсин?

– СИЗНИНГЧА, АДАБИЁТНИНГ «ЮРАГИ»НИ БИЛИШ УЧУН НИМА ҚИЛИШ КЕРАК?

– Кўчимли-метафорик савол экан бу, Абдураззоқ ака. Адабиётнинг «юраги»ни билиш, адабиётнинг «юрак уриши»ни тинглаш учун одам ўзининг юрагини қўлига олиб, унинг кирликларини обдан тозалаши ва покиза назар билан, тоза юрак билан бадиий адабиётга қараши керак.

– ВАТАНИМИЗ ҲИМОЯЧИЛАРИГА ҚАНДАЙ АСАРЛАР ЎҚИШНИ ТАВСИЯ ҚИЛАСИЗ?

– Иймон-этиқодини, тупроққа, Ватанга, миллатга, инсонга меҳр-муҳаббати ва мурувватини кучайтирадиган китобларни тавсия қиламан. «Бобурнома» – ажойиб асар, «Ўткан кунлар» – зўр роман, «Маттео Фальконе» – мен яхши кўрадиган ҳикоя.

Суҳбатдош
Абдураззоқ ОБРЎЕВ,
истеъфодаги подполковник,
Ўзбекистонда хизмат
кўрсатган журналист



Oila a'zolari orasida yuz berishi mumkin bo'lgan nizolar e'tiborsizlik natijasida jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ya'ni boshqa ijtimoiy birliklarda (mahalla, maktab, mehnat jamoasi va b.) "aks sado" beradi. Nizolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilar ekanmiz, qarama-qarshiliklar va ularning yechimlarini butun jamiyat miqyosida ideallashtirish mumkinligini ko'ramiz.

OILADAGI NIZOLAR

KELIB CHIQISH SABABLARI, BIRLAMCHI TAHLILI

Oilaviy buzilishlarni iqtisodiy, ijtimoiy qarashlardagi farqlar, turli maishiy xarakterdagi, jismoniy-fiziologik munosabatlardagi nizolarga ajratish mumkin. Ularni umumlashtiruvchi bir xususiyat shuki, milliy to'y marosimlari o'tkazilishining noto'g'ri tashkillashtirilishi, turli dabdaba va o'zibo'larchilikka yo'l qo'yilishi oqibatida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy xarakterdagi kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bu kabi omillarni ilmiy tahlil etish o'zbek psixologiyasida yangicha qarash va yondashuvlarning ilgari surilishiga zamin yaratadi.

"Ijtimoiy fikr" va "Oila" markazlari tomonidan o'tkazilgan anketa-so'rov natijalariga ko'ra, er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi (96 foiz), oilada farzandsizlik (94 foiz),

er-xotin o'rtasida sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi (91 foiz), oila byudjetini ratsional boshqara olmaslik (90 foiz) kabi omillar oilaviy nizolar kelib chiqishining birinchi o'rindagi asosiy sababi ekanligi qayd etildi.

Nizolar fonida doimo ikki va undan ortiq oila a'zolarining o'zlari uchun belgilab olgan maqsad va imkoniyatlaridagi tafovutlar ko'zga tashlanadi. Normal sharoitning yo'qolishi va keskinliklar yuzaga kelishi oqibatida noto'liq oilalar soni ortib boradi. Bu esa jamiyat uchun yangi muammolar keltirib chiqaradi.

O'zbek oilalarida ajrimning sabab va oqibatlarini yagona ilmiy tamoyil asosida ko'rib chiqish va bunda oilada farzand tarbiyasi, yoshlarni oilaga

tayyorlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yangi oilalarga taqdim etilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish ishlarini takomillashtirish bilan birga, albatta, o'zbek turmush tarzining ajralmas qismi hisoblangan turli an'analar va milliy to'y marosimlarining rejali o'tkazilishini ta'minlash ishlarini nazarda tutish lozim. Hozirgi zamon sotsial psixologiyasining asosiy talabi ham oila va uning jamiyatdagi vazifalari misolida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli nizolarning oldini olishdan iborat bo'lishi kerak.

**Katta leytenant
Jamshid HABIBOV,
Markaziy harbiy okrug
harbiy psixologi**

*Insonlar bor, baxtsizlikdan baxt qidirar,
insonlar bor, baxt ichida ham baxtsizlik ko'rar*

Ikki kishi – ikki xil qarash, hayotga ikki xil yondashuv. Odamlar borki, ular doim nimanidir sog'inishadi, har doim shikoyat qiladigan narsalari ham topiladi. Yana bir turli insonlar ham borki, ular qanday quvonishni, har qanday vaziyatda yorqin lahzani topishni bilishadi. Va bu yerda gap odamda bor narsada emas, balki u bor narsaga qanday baho berishida, aynan bir narsaga qaysi rakursdan qarashiga bog'liq.



uqtiradi. "Hammasi yaxshi, lekin bundan ham yaxshiroq bo'ladi!" – bu optimistning hayotiy shiori.

Mark Tven shunday degan edi: "Dunyoda yosh pessimistdan ko'ra dahshatli manzara yo'q. Ehtimol, faqat eski optimizm undan ham yomonroqdir". Gap shundaki, har ikkala pozitsiyaning ham afzalliklari va kamchiliklari bor.

Ko'p lug'atlarda optimizm atrofimizdagi dunyoni idrok etish, kelajakka bo'lgan quvonch va ishonch bilan, pessimizm esa umidsizlik va yaxshiroq kelajakka ishonmaslik bilan singdirilgan tushuncha sifatida ta'riflanadi. Pessimistlarning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatsizliklar uzoq davom etadi, ular hayotlarining ko'p sohalariga taalluqlidir va bunda o'zlari aybdor. Qiyin vaziyatda pessimistlar depressiv holatga tushadilar. Pessimist bu – hayotga, uning jarayonlariga, hodisalariga, kelajakka salbiy nazar bilan qaraydigan odam. Voqeaning ro'y berishi mumkin bo'lgan natijalari orasida u eng yomonini ko'radi. "Hammasi yomon, lekin bundan ham battar bo'ladi!" – bu pessimistning hayotiy shiori.

Optimistlarni esa muvaffaqiyatsizlikka uchratib bo'lmaydi. Ularda ishda, sportda, o'qishda va shaxsiy hayotida muvaffaqiyat qozonish ehtimoli ko'proq. Aslini olganda, optimizm va pessimizm – bir tanganing ikki tomoni: old, yorug'lik va quvonchlik, orqa tomoni – qorong'i va kulrang. Pessimist – plusdan ikkita minus yasaydigan odam. Pessimistlar har doim ham ishning yomon natijasi uchun hadik kayfiyatida bo'lishadi, hatto hech narsa muammo tug'dirmasa ham. Ko'pincha pessimist tanho hayot kechiradi, uning do'stlari juda kam yoki umuman bo'lmaydi. Pessimist bilan muloqot – odamlarda u bilan tezda xayrlashish istagini uyg'otadi. Umidsizlik,

melanxolik, ajralish, eng yomon narsalarga ishonish – pessimistning sodiq hamrohlari.

Ana endi yana bir tushuncha bor. Bu "realist" tushunchasidir. Bu biror narsani amalga oshirishda atrofda voqelikni aniq tushunish va real baholash qobiliyatini bildiradi. Faraz qiling, siz dengiz sayohatiga otlandingiz va birdan shamol turdi. Ushbu holatga hamrohlaringiz reaksiyasi: pessimist shamol haqida shikoyat qiladi. Optimist ob-havo o'zgarishiga umid qiladi. Realist yelkanlarni o'rnatadi. Agarda siz realist bo'lsangiz, ehtiyotkorlik, o'zini o'zi boshqarish, vaziyatni har doim nazorat qilish qobiliyati ajralmas hamrohlaringizdir. Har qanday chalkash, g'alati va ko'pincha tushunarsiz vaziyatda siz yagona to'g'ri yechimni topa olasiz. Sizning realizmingiz eng nozik vaziyatlarga duch kelsangiz ham sizga yordam beradi.

Realist hayotga, uning jarayonlariga, hodisalariga, kelajakka haqiqiy, eng aniq tasavvur bilan qaraydigan odam. Voqeaning barcha mumkin bo'lgan natijalari orasida u eng ko'p sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqeani ko'radi, bu ijobiy yoki salbiy bo'lishining farqi yo'q. Realist optimist va pessimistdan farqli o'laroq, vaziyatni his-tuyg'ularsiz tahlil qiladi, aqliy tafakkuriga tayanadi. Realist bo'lishning afzal tomoni shundaki, ular boshqalarga qaraganda eng yaxshi variantni tanlaydilar va boshqalarga qaraganda kamroq xato qiladilar. Ammo ularning ham kamchiliklari bor. Aytaylik, realist hayotga oddiy ko'zoynak bilan qarasa, optimist "atirgul ko'zoynak" bilan, pessimist esa qora ko'zoynak ortidan boqadi.

BLASEPISTLAR KIM?

Blase bu – hayotga, uning jarayonlariga, hodisalariga befarq qaraydigan odam. U voqeaning natijasi qanday bo'lishidan manfaatdor emas, u xavotirlanmaydi va bu haqda hech qanday his-tuyg'ularni sezmaydi. "Tinch qo'y, hamma narsa o'z holicha qolsin, shunday bo'lsin!" – bu befarqlarning shiori.

Blasepistlar xotirjam va o'lchovli hayot kechirishadi, ular to'g'ri qaror qabul qilishlari yoki qilmasliklari haqida o'ylamaydilar.

Anton Chexov shunday degan edi: "Hayot, shubhasiz, yoqimsiz narsa, lekin siz undan tasalli beradigan daqiqalarni topishga harakat qilishingiz kerak. Tishingiz og'riganida, hamma tishlaringiz emas, bittasi og'riganidan xursand bo'ling".

Anatoliy Kashpirovskiy fikrida ham jon bor, u hayotda qiyinchiliklarga duch kelmaslik haqida maslahat beradi: "Kulgi sizni bo'g'ib qo'yganda, uni oddiy tabassum bilan kamaytirishga harakat qiling va agar qayg'u sizni parchalab tashlasa, uni ozgina umid bilan yamashga urining".

Uch kishi tosh tashiyotgan edi. Ularning biridan so'rashdi:

– Umuman olganda, bu yerda nima qilyapsan?

U peshonasidagi terni artib tashladi-da, javob berdi:

– Mana shu mehnatim tufayli qaddim bukilib, og'ir kunlarga qolib ketdim.

Ikkinchisining oldiga borib so'rashdi:

– Sen nima qilyapsan?

U yenglarini shimardi-da, tumshug'ini ko'tarib, g'urur ila javob berdi:

– Pul ishlayapman. Bu yerda boshqa nima ham qilardim?

Keyin uchinchi kishidan so'radilar:

– Sen nima ish qilyapsan?

U jilmaydi-da, javob berdi:

– Ibodatxona quryapman.

Qissadan hissa: qachonki oldingga oliy maqsad qo'yarkansan, har qanday vaziyatda ham yashayotgan umringda ma'no bo'ladi.

Shunday insonlar bor, baxtsizlikdan baxtni qidiradi va yana shunday insonlar borki, baxt ichida ham baxtsizlikni ko'radi. Bu hayotning achchiq haqiqatidir.

Dedim: Ayt, umrning ma'nosi nima?

Dedi: Yo chaqmoq, yo sham, yoki parvona.

Dedim: Bu dunyoga bino qo'ygan kim?

Dedi: Yo go'l, yo mast, yoki devona...

**Katta leytenant Elyor XOLMATOV,
O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya
bilim yurti bo'lim katta ofitseri**

ZABARDAST ADIB VA FAYLASUF SHOIR



G'afur G'ulom XX asr o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan betakror iste'dod sohibidir. O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi bo'lgan bu ulkan san'atkor o'zining serqirra ijodi va faoliyati bilan milliy adabiyot rivojiga, o'zbek xalqi madaniyati va ilm-fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Alloma shoir ijodi va faoliyatini o'rganishda mustaqillik yillarida katta sharoitlar yaratildi.

XX asrning 30-yillari mamlakat ma'naviy-ijtimoiy hayotidagi hodisalar, albatta, so'z san'atida ham o'z aksini topgan edi. Chunki bu davrda totalitar rejimning adabiy siyosati eng avj pallasiga ko'tarilgan edi. Ana shunday sharoitda, mash'um 36-37-yillari matbuotda zamona siyosatiga mutlaqo bo'ysunmagan, o'jar, erkin, asov bir ruhdagi "Shum bola" asarining paydo bo'lishi mislsiz hodisa edi. Qissada qalamga olingan xalq hayotining bir qarashda uncha muhim bo'lib tuyulmagan g'aroyib lavhalar tasviri, bir chekkasi o'sha kezlarda urf bo'lgan siyosatbozlikdan zarda bo'lgan ko'ngillarga orom, o'zgacha kayfiyat baxsh etadi, o'zgina bo'lsin zamona tashvishlaridan chetga tortganday bo'ladi. Aslida shunchaki hangoma, oldi-qochdi sarguzashtlardan iboratday tuyulgan tasvir zamidida juda muhim va teran insoniy, ijtimoiy ma'no mujassam. Go'yo bu qissa qoliplarga tushmaydigan bebosh hikoya tarzi bilan o'sha kezlarda yaratilgan soxta, o'ta mafkuralashtirilgan asarlarga o'ziga xos parodiya-kinoya kabi tuyuladi. Adib bosh personaj – Shum bola (*darvoqe, G'afur G'ulom asar qahramoniga ism bermaydi, biz o'rgangan Qoravoy esa shu nomli film suratga olinayotganda ilk bor ishlatiladi*) panasida turib, bu foni dunyoning telba-teskari ishlarini yuqoridan xiyol kulib kuzatib boradi. Shuning uchun ham bu asardagi dialoglar tezlikda xalq tiliga ko'chib o'tadi. "Xo'sh, innankeyin-chi" iborasini tilga olmagan kishi bo'lmasa kerak.

Bosh qahramon obrazida turmushning achchiq sinovlari, uning turli xil holatlarga tushib qolishi va shumligi sababli osongina chiqib ketishi, o'zining "zukkoligi" har qanday vaziyatda o'smir bolaning hayotiy muammolarni yengib ketishi ko'rsatilgan. Mazkur asar qaysidir ma'noda adibning bolalikdagi xotiralarini qamrab olgandek

tuyulsa, aslida unda o'sha davr milliy hayot tarzi ifodasi, umuminsoniy qadriyatlar va qarashlar o'z aksini topgan. Voqeaband holatlarda milliy an'analarda saqlangan o'yinlar, urf-odatlar, qadimgi qo'shiqlarimiz, joylarning o'ziga xos tasviri to'liq ifodalangan. Asarda ishtirok etgan har bir qahramonning o'ziga xos o'rni bor, har biri bir turkum individ – o'z xarakteri, hayotiy epizodi, ruhiy kechmishlarga boy.

Akademik G'afur G'ulom yuksak salohiyatli ijodkor bo'lib, nafaqat atoqli shoir va adib, balki zabardast adabiyotshunos olim, hozirjavob munaqqid ham edi. Uning xalq og'zaki ijodiga, mumtoz adabiyotimiz tarixiga hamda zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyoti, adabiyotning nazariy masalalariga, o'zaro ta'sir va an'analarga doir qarashlari, kuzatuv va xulosalari o'zbek adabiyotshunosligi, tanqidchiligining eng muhim, dolzarb, ayni chog'da istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat etdi.

Olimning birgina Muqimiy ijodiga oid qarashlari yoki uning Ro'zimuhammad ismli jiyani o'rtasidagi yozishmalar masalasining ilk bor G'ulom tomonidan ko'tarib chiqilganligi yoki "Ikki Mashrab" yoki "Atoyi emas, O'toyi" maqolalari, shuningdek, Alisher Navoiy haqidagi qarashlari hali hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda.



Aytish mumkinki, G'afur G'ulom o'zining eng yaxshi she'rlarini bolalar va o'smirlar uchun bag'ishlagan: "Ikki bolalik", "Bilaman", "Seni Vatan kutmoqda".

Urush yillarida G'afur G'ulom "Sen yetim emassan", "Seni kutayman, o'g'lim!", "Vaqt", "Kuzatish", "Ayo", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" kabi ajoyib she'rlar yaratgan. "Seni kutayman, o'g'lim!" she'rida shoir front ortida o'zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g'alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi.

Mushkul kunlarda insonlarning bolalarga bo'lgan muhabbati buyuk ma'no kasb etgan. Bu ota-onasini yo'qotib, oddiy odamlarning sidqidildan qilgan g'amxo'rliqi haqida so'z boruvchi ajoyib "Sen yetim emassan" she'rida yaqqol seziladi.

Bir so'z bilan aytganda, G'afur G'ulom ham nasrda, ham nazmda birdek mehnat qilib, o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan zabardast siymolardandir. Uning boy adabiy merosini o'rganish va tatbiq etish bugungi avlod oldida turgan muhim vazifalardan biri.

Malohatxon XO'JAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
3-bosqich talabasi

#Qatra

CHO'QQIDAGI NIGOH

Sen hech qishlog'imizga kelganmisan? Kelmagan bo'lsang kerag-a? Ana bizning qishloq – tog'lar, daryolar bilan o'ralgan, qutidek-qutidek uylar bilan to'lib-toshgan.



Men hozir qishloq tegrasiidagi eng baland cho'qqida turib, hamqishloqlarim hayotini kuzatyapman: anavi sochlari uzun, ko'zlari qisqiz – Chamanoy, doimgidek asr mahali hovlisini chinniday qilib supurishni boshladi. Bir suruv qo'ylarni haydab kelayotgan, soqollari oppoq ozg'in chol – uning bobosi. Juda injiq chol, hamma undan hayiqib turadi. Anavi devorlari oqlangan bino bizning maktab, yaqinda ta'mirlandi, hatto hali bo'yoq hidi ham ketmagan. Maktab hovlisini to'ldirib qiyqirib yurgan bolalar – mening do'stlarim. Ular bolalikning eng baxtli pallasida...

Paxsa devorli uylardan biri bizniki. Hovlidagi chorpoyada

onam ko'rpa qavish bilan ovora. Yonlarida ukam beshikda yotibdi, dam-badam tamshanib qo'yadi. Shunda onam beshik tutqichidan asta tutadilar-da, "Allayo, alla" deydilar. Go'dakning yuziga boqib, onamning ko'zlarida so'nib qolayozgan umid qayta jonlanadi. Lablariga tabassum yuguradi.

Katta qora govmishni avaylab sog'ayotgan, chehrasini oltmish yillik hayot chiziqlari qoplagan kampir – buvim. Ularning orqasida dumini likillatgan "Olapar" turibdi. Uni qo'shnimiz Soqi amaki berganlar. O'shanda "Olapar" mushtdaygina kuchuk edi...

Suvoqlari ko'chgan, eski namat to'shalgan, ko'rpa-to'shaklar-u xontaxta qo'yilib, yanayam katalakdek bo'lib qolgan xonada sovuq choyni bosib-bosib ichayotgan kishi – dadam. Uyimizdagi bunday rangsiz hayotning sababi – mening yo'qligim.

O'shanda yomg'irli tun edi. Har kungidek otam mast holda gandraklab kirib keldilar. Doimgidek janjal-to'polon boshlandi: onam ayovsiz kaltak ostida, ukam chirillab yig'laydi, buvijonim "hay-hay"laydi... Men esa bir chetda biqinib o'tiribman. O'kindim, bola qalbim g'am dengiziga cho'kib ketdi. Yuragimni alam o'rtadi: "Nega bizning oilada shunday?" Keyin ko'rimsiz,

fayzsiz hovlimizdan uzoqlashdim. Chopdim, jon-jahdim bilan yugurdim. To'xtasam, go'yo yuragim yorilib ketadigandek tinimsiz chopdim. Va mana shu cho'qqiga chiqdim. Yomg'ir hamon quyar, oyog'imga yopishgan palaxsa-palaxsa loy meni kuch bilan pastga tortayotgandek edi. Zimiston qa'rida olis-olislardagi yakkam-dukkam chiroqlarning xira shu'lasi ko'zga tashlanadi xolos.

Alamdanmi, qo'rquvdanmi, o'kirib yig'ladim. Sharros yomg'ir ovozimni bosib ketdi. Yuragimni bo'shatib, ortga qaytmoqchi bo'lib qadam bosgandim, oyog'im toyib, jarlikka quladim. Boshim nimagadir qattiq urildi... Og'riqdan alahsib uzoq yotdim. Keyin birdan og'riq to'xtab, yengil bo'lib qoldim, hatto uchib ketdim.

Hozir hammasi yaxshi. Qishlog'imiz tinch, qaldirg'ochlar uchib yuribdi. Onamning yuzida tabassum, otam o'nglangan. Men esa... men esa har kuni quyosh chiqib botgunga qadar shu qoya labida ularni kuzataman. Aytdim-ku, onam shod, buvim omon, otam insofga kelgan... Faqat men yo'qman.

Nargiza ABDULLAYEVA

YOSH BIATLONCHILAR BELLASHUVI

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent
viloyati kengashining Chirchiq shahrida joylashgan texnik va
amaliy sport turlari markazida yozgi biatlon bo'yicha viloyat
kubogi musobaqasi o'tkazildi.**

Unda "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi tasarrufidagi barcha o'quv muassasalarida faoliyat yuritayotgan sport seksiyalari va to'garaklarining sportchi yoshlari ishtirok etdi.

14–19 hamda 20–26 yosh toifasidagi o'g'il bolalar va qizlar estafeta (3 000, 4 000 metr masofaga yugurish) va pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha bellashdilar.

– Ushbu sport seksiyalari va to'garaklari faoliyatiga joylardagi uyushmagan yoshlar, "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni jalb qilishga e'tibor qaratilmoqda, – deydi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi raisi podpolkovnik Nurbek Otaqo'ziyev. – Musobaqadan ko'zlangan maqsad – fuqarolar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish va ommalashtirishga qaratildi.

Qizg'in va murosasiz ruhda o'tgan bahslarning yakuniy natijalariga ko'ra, har ikki yosh toifasi bo'yicha Chirchiq avtomobil maktabi o'quvchilari Bekzod Bekov va Sardor Husanov g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shohsupaning qolgan o'rinlarini ham ana shu maktab jamoalari to'ldirdi, faqat 14–19 yosh toifasida Sardordan keyingi 2-o'rinni Quyi Chirchiq O'STK vakili Jamoliddin Tursunaliyev egalladi.

Qizlar o'rtasida ham har ikki yosh toifasi bo'yicha Chirchiq avtomobil maktabi o'quvchilari Muxlisa Yoqubova va Inobat Tojiyeva mutlaq g'alabani qo'lga kiritdi. Yuqori chirchiqlik Shahzoda Habibullayeva va Parkent tumanidan Husnora Dilmurodova kuchli uchlikdan o'rin oldi. Mardona Abdurahmonova (Nurafshon O'STK) va Gulnora Tolipova (Bekobod shahri O'STK) 14–19 yosh toifasida 2- va 3-o'rinlarga sazovor bo'ldi. Umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni Chirchiq avtomobil maktabi egalladi. Nurafshon hamda Yuqori Chirchiq tumani o'quv sport-texnika klublari ikkinchi va uchinchi o'rinlarni band etdi.

Musobaqada faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilarga "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent viloyati kengashining diplom va qimmatbaho sovg'alari topshirildi.



Leytenant Dilshod
RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

#E'tibor

**Odatda ayollarni bahor
fasliga qiyoslashadi.
Nafislik, latofat, go'zallik
kabi tushunchalar
haqida so'z ketganda
ayol va bahor yodga
tushadi. Bahor faslining
ilk kunlarida, ya'ni
8-mart sanasida esa
Xalqaro xotin-qizlar
kuni nishonlanishida
ham o'zgacha ma'no
mujassam.**

NAFOSAT BAYRAMI

Mazkur sana munosabati bilan maktabimizda bayram tadbiri yuqori kayfiyatda o'tkazildi. Unda o'quvchilarimiz ayollarni, onalarni madh etuvchi, ularning e'zozlanishi haqida she'rlar aytishdi. Dillarga huzur va bahoriy kayfiyat ulashuvchi kuy-qo'shiqlar yangradi. Yuqori sinf o'quvchilari tomonidan qiziqarli sahna ko'rinishlari ijro etildi. O'quvchilar tadbir mehmoni bo'lgan onajonlarga alohida hurmat ko'rsatib, gullar tuhfa etishdi.

Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayz-u baraka kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar etadigan



mo'tabar onalarimiz, munis opa-singillarimiz sha'niga iliq so'zlar aytiladi. Oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turishi yo'lidagi zahmatlari sabab qancha ardoqlasak ham oz.

Muqaddas SOBIROVA,
Yashnobod tumanidagi
161-maktab o'qituvchisi

“YORQIN YULDUZ” HAMON PORLAMOQDA!



Taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi biryo'la uchta xalqaro musobaqada ishtirok etish uchun Eronga jo'nab ketgan edi. Ulardan biri - Osiyo chempionati o'z yakuniga yetdi. Taekvondochilarimiz mazkur musobaqaning 7 ta medalini qo'lga kiritishdi. Ushbu muvaffaqiyatga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham munosib ulush qo'shishdi.

Mart oyida Eronda o'tkaziladigan taekvondo WT bo'yicha xalqaro musobaqalar "seriyasi"da qatnashish uchun terma jamoamiz Tehron shahriga 19 nafar yetakchi sportchisi bilan yo'l olgan edi. Ularning dastlabkisi - Osiyo chempionati bo'lib o'tdi va u taekvondochilarimiz uchun muvaffaqiyatli yakunlandi. Ayniqsa, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Ulug'bek Rashitovning yana bir bor nufuzli musobaqa shohsupasiga g'olib sifatida ko'tarilishi sport muxlislarimizga cheksiz quvonch baxsh etdi. Zero, so'nggi yillar davomida dunyoning bir qator yetakchi murabbiylari va mutaxassislar tomonidan "O'zbekiston taekvondosining bo'lajak yorqin yulduzi" sifatida e'tirof etilgan, o'tgan yili o'tkazilgan "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarida esa g'oliblikka erishib, bu ishonchni oqlashga muvaffaq bo'lgan yosh sportchimiz Eronda ham barcha raqiblarini katta ustunlik bilan mag'lubiyatga uchratdi. Boz ustiga, mezbonlar vakili Muhammad Husayn Zohidga qarshi murakkab kechishi kutilgan final bahsida ham Ulug'bek 25:8 hisobida g'alaba qozondi va o'z vazn (-68 kg) toifasida chempion bo'ldi. Bu MVSM vakilining ushbu mavsumdagi ikkinchi yirik muvaffaqiyatidir. U fevral oyida BAAning Fujayra shahrida o'tkazilgan, "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun muhim ochkolar taqdim etiladigan "Fujairah Open - 2022" xalqaro turnirida ham oltin medalga sazovor

bo'lgandi. Shu tariqa O'zbekiston taekvondosining yorqin yulduziga aylanib ulgurgan Ulug'bek Rashitov hozircha qandaydir "bulutlar to'sig'i"ga duch kelmayapti, yorqin tarzda porlamoqda.

MVSMning yana bir vakili - 2018-yilgi Osiyo o'yinlari g'olibi, 2018-yilgi Osiyo chempioni, bir necha jahon chempionatlari sovrindori Nikita Rafalovich ham Erondagi qit'a birinchiligida shohsupaga ko'tarildi. -80 kg vazn toifasida dayanga chiqqan katta tajribaga ega taekvondochimiz bu safar ham bir oy oldingi xalqaro musobaqadagi kabi bronza medal bilan kifoyalandi.

Taekvondo WT bo'yicha Osiyo chempionatida O'zbekiston erkaklar terma jamoasining yana ikki nafar vakili sovrindor bo'ldi. Hamyurtimiz Shuhrat Salayev finalda qozog'istonlik sportchini 25:11 hisobida mag'lub etib, oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Jasur Jaysunov bronza medalga ega chiqdi.

Aslida bu galgi qit'a birinchiligi ayollar bellashuvlari bilan boshlangandi. Murosasiz bahslar natijasida O'zbekiston terma jamoasining barchinoylari uchta yo'nalishda medallarni qo'lga kiritishdi. Xususan, hamyurtimiz Feruza Sodiqova barcha raqibalaridan ustun kelgan holda oltin medalga egalik qildi. Terma jamoamizning iqtidorli sportchilari Charos Qayumova hamda Svetlana Osipova esa o'z vazn toifalari bo'yicha bahslar yakunida bronza medalga sazovor bo'lishdi.

Shu tariqa taekvondochilarimiz Eronda o'tkazilgan Osiyo chempionatini 3 ta oltin va 4 ta bronza, jami 7 ta medalni qo'lga kiritish bilan yakunlashdi.

#Qilichbozlik

TARIXIY MUVAFFAQIYAT

Toshkentda qilichbozlik bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. O'smirlarimiz musobaqaning 12 ta, yoshlarimiz 15 ta medaliga egalik qilishdi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham qit'a chempionati sovrindori bo'lib, umumiy muvaffaqiyatga munosib ulush qo'shishdi.



Avvalo, shuni ta'kidlash joiz, ushbu yutuqlar bilan mamlakatimizning o'smirlar va yoshlar terma jamoasi Osiyo chempionatlari tarixidagi eng yaxshi ko'rsatkichni qayd etishdi. O'smirlar o'rtasidagi murosasiz bahslarda iste'dodli sportchilarimiz 6 ta oltin, 4 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritish bilan umumjamoa hisobida yakka peshqadamlikka erishdi. 5 ta oltin, 3 ta kumush va 7 ta bronza medalni jamg'argan yoshlarimiz esa umumjamoa hisobida chempionatni 2-o'rinda yakunlashdi. Bu yosh toifasidagi qilichbozlarimizning aksariyati 2025-yili Toshkentda yoshlar o'rtasida o'tadigan Osiyo o'yinlari va 2028-yili Los-Anjeles mezbonlik qiladigan yozgi Olimpiya o'yinlariga asosiy nomzod

sportchilar ekanligini nazarga olsak, bizni oldinda qilichbozlik bo'yicha yanada ajoyib yutuqlar kutayotganiga amin bo'lamiz. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining bir qator iste'dodli yoshlari ham qilichbozlikning shpaga, rapira, sablya kabi yo'nalishlari bo'yicha bahslarida sovrindor bo'lishdi va terma jamoalarimizning tarixiy muvaffaqiyatlariga munosib ulush qo'shishdi. Xususan, MVSM vakili Shahzoda Egamberdiyeva yoshlar o'rtasida o'tkazilgan qilichbozlikning shpaga yo'nalishi bo'yicha yakka bahslarida bronza medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Dilnaz Murzatayeva finalda gonkonglik Xailin Chenni dog'da qoldirgan holda qit'a birinchiligining oltin medali bilan taqdirlandi. MVSMning yana bir vakili Ilyas Smoling yoshlar o'rtasidagi rapira bahslarida bronza medalga ega chiqdi. Bu iqtidorli yosh sportchilar jamoaviy bahslarda ham mamlakatimiz terma jamoasi yutug'iga o'z hissalarini qo'shishdi.

E'tiborlisi, mazkur qit'a chempionatining deyarli barcha yo'nalishida sovrinli o'rinlar uchun kurash O'zbekiston va Gonkong jamoalari o'rtasida kechdi. Xususan, o'smirlar o'rtasidagi bahslar yakunida yurtimiz qilichbozlari 6 ta oltin, 4 ta kumush va 2 ta bronza, jami 12 ta medal bilan yaqqol peshqadamlik qilgan bo'lsa, 4 ta oltin, bitta kumush va 5 ta bronza, jami 10 ta medalga ega chiqqan Gonkong o'smirlar terma jamoasi 2-o'rinni egalladi. Yoshlar o'rtasidagi bahslar yakunida esa, aksincha, 1-o'rin gonkonglik qilichbozlarga nasib etdi. Aslida yoshlarimiz raqiblariga nisbatan ko'proq, ya'ni jami 15 ta medalga egalik qilishdi, biroq yakunda O'zbekiston va Gonkong jamoalari qo'lga kiritgan oltin medallar soni teng bo'ldi, faqat kumush medallar soni bo'yicha kichik ustunlik Sharqiy Osiyo jamoasini peshqadamga aylantirdi. Gonkong yoshlar terma jamoasi ushbu qit'a birinchiligini 5 ta oltin, 4 ta kumush va 4 ta bronza, jami 13 ta medal bilan yakunladi. Yana bir qiziqarli jihat, Qozog'iston o'smirlari 2 tadan oltin va bronza medalni qo'lga kiritib, qit'a chempionatini umumjamoa hisobida 3-o'rin bilan yakunlagan bo'lsa, yoshlari ham bitta oltin, 3 ta kumush va 2 ta bronza medal bilan uchinchi bo'lishdi.

SHOHSUPA

(xabarlar)



SPORT GIMNASTIKASI

Qatar poytaxti Doha shahrida o'tkazilgan Jahon kubogining navbatdagi bosqich bahslarida o'zbek sport gimnastikasi afsonasi, Olimpiya o'yinlarining 8 marta ishtirokchisi Oksana Chusovitina hali ham katta sport maydonida ekanligini butun dunyoga namoyish etdi. 46 yoshli hamyurtimiz tayanib sakrash dasturining final bahsida 13.433 ochko jamg'arishga muvaffaq bo'ldi va barchani lol etgan tarzda shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Chusovitina g'alabasi sharafiga Doha shahrida O'zbekiston bayrog'i baland ko'tarilib, Vatanimiz madhiyasi yangradi.



DZYUDO

Tarkibida Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham bo'lgan dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining 12 nafar sportchisi Chexiya poytaxtida o'tgan Yevropa ochiq chempionatida qatnashdi. 42 ta mamlakatning 500 nafarga yaqin sportchisi ishtirok etgan mazkur nufuzli musobaqada hamyurtlarimizdan O'tkirbek To'raboyev oltin, Rahimjon Subhonov bronza medalga ega chiqdi.



YENGIL ATLETIKA

Avstraliyaning Kvinslend shtatida o'tkazilgan yengil atletika bo'yicha xalqaro musobaqada hamyurtimiz Roksana Xudoyorova ikki marta shohsupaga ko'tarildi. Noqulay ob-havo sabab uch hatlab sakrash bo'yicha ishtirokchilarga o'z urinishlarini bajarish uchun 3 martadan imkoniyat berildi. "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari ishtirokchisi Roksana so'nggi urinishda 13.60 metr natija qayd etib, g'oliblikka erishdi. Ikkinchi kuni musobaqaning uzunlikka sakrash dasturida qatnashgan sportchimiz 6.12 m natija bilan kumush medalni ham qo'lga kiritdi.



VELOSPORT

Terma jamoamiz a'zolari Turkiya yig'ini doirasida xalqaro musobaqalarda ham qatnashmoqda. Dastlabki musobaqada hamyurtimiz Yanina Kuskova bronza medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, keyingi "Grand Prix Mediterranien" turnirida marra chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'tdi. Yosh umidli vakilimiz Anna Kulikova esa shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy oldi.



BESHKURASH

Belarusning Brest shahrida zamonaviy beshkurashning ikkikurash va uchkurash yo'nalishlari bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. Unda ko'plab davlatlardan borgan U-11, U-13, U-15, U-17 yosh toifalaridagi 120 nafar sportchi qatnashdi. 15 yosh toifasidagi o'smirlar o'rtasidagi bahslarda hamyurtimiz Kira Soy uchinchi o'rinni egalladi. Yana bir hamyurtimiz Sherjon Ahmedov murosasiz raqobatda to'rtinchi natijani qayd etdi.



BOKS

Butunjahon boks assotsiatsiyasi (WBA) o'zining yangilangan reytingini e'lon qildi. Birinchi yarim yengil vazn (55,3 kg) toifasidagi bokschimiz Murodjon Ahmadaliyev va super yarim o'rta vazn (69,8 kg) toifasidagi bokschimiz Isroil Madrimov WBA reytingida ham on peshqadamlik qilmoqda. O'ta yengil vazn (48,9 kg) toifasidagi bokschimiz Hasanboy Do'smatov ham avvalgi oydagi o'rnini saqlab qoldi - 3-o'rin. Yarim yengil vazn (57,1 kg) toifasidagi bokschimiz Otabek Xolmatov o'tgan oydagi o'rnidan bir pog'ona yuqorilab, 12-o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, Shohjahon Ergashev (63,5 kg), aksincha, 10-o'randan 11-o'ringa sho'ng'igan.

Rasul JUMAYEV,
"Vatanparvar"



ШИЖОАТЛИ МАЛИКАЛАР БАҲСЛАШДИ

“
Аёллар ҳақида фикр юритилганда биринчи навбатда уларнинг оғизга эканлиги ҳамда ҳимояга муҳтожлиги кўз ўнгимизда гавдаланади. Дарҳақиқат, аёл – она, опа, сингил, ёр, меҳрибон қиз. Ошхонада моҳир пазанда, ишхонада сариштали ходима бўлган фариштали опа-сингилларимизни қанча авайласак, шунча кам.

Ватан ҳимояси йўлида йигитлардек камарбаста бўлаётган бу нозик хилқат вакилларининг фаолиятига назар солиш билан уларнинг у қадар ҳам оғизга эмаслигига амин бўласиз. Мудофаа вазирлиги қўшинларида фаолият юритаётган ҳарбий хизматчи аёллар ўртасида бўлиб ўтган спартакиада ҳам фикримизни қувватлайди. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари академиясида бошланиб, Мудофаа вазирлиги спорт марказида давом этган ушбу мусобақада ҳарбий округлар, қўмондонликлар, ҳарбий таълим муассасалари ҳамда ҳарбий қисмлардан саралаб олинган аёллар жамоаси иштирок этди.

Спартакиадани мудофаа вазирли ўринбосари полковник Алишер Норбоев кириш сўзи билан очиб берди. Жамоа вакилларини 8 март – Халқаро хотин-қизлар байрами билан табриклаб, мусобақаларда уларга омад тилади. Шундан сўнг ҳарбий оркестр садолари остида беллашувларга старт берилди.


Мусобақанинг биринчи шarti арқон тортиш бўлиб, унда ҳарбий хизматчи аёлларнинг жисмоний имкониятлари синовдан ўтказилди. Ушбу шарт жуда қизиқарли ва шиддатли бўлди. Бу жамоа вакилларининг бир-бирини тушуниши ва ҳамжиҳатликда ҳаракат қилишлари учун муносиб шартлардан бири бўлди. Арқон ва ерда белгиланган чизиқнинг ҳар бир қаричи учун жон-жаҳди билан тортишишди.

Иккинчи шартда эса иштирокчилар эпчиллик-

ни талаб қиладиган спортнинг стол тенниси бўйича баҳсга киришди. Учинчи шартда ҳарбийлардан талаб қилинадиган аниқликка урғу берилди. Унда жамоалар дартс йўналишида ўзларининг маҳоратларини синовдан ўтказиб, нишонни аниқ мўлжалга олиш бўйича беллашдилар. Жисмоний ҳаракатлардан озроқ бўлса-да, чалғиш мақсадида дастурга асосан тўртинчи шартни жамоа вакиллари шахмат-шашка доскалари қаршисида ўтказишди. Кўпчилик севиб ўйнайдиган бадминтон мусобақаси бешинчи шарт бўлди. Жамоавий спорт турига кирадиган, аҳиллик ва бирдамликда ҳаракат қилишга ундовчи волейбол эса спартакиаданинг сўнгги шarti бўлди.

Икки кунлик синовли ва мурасиз шартлар ниҳоясига етди. Ҳакамлар ҳайъатининг ҳулосасига кўра, умумжамоа ҳисобида 3-ўринни Тошкент шаҳридаги ҳарбий қисм, 2-ўринни Мудофаа вазирлиги марказий аппарати ва марказий алоқа узели, фахрли 1-ўринни эса Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти жамоаси қўлга киритди. Бундан ташқари мусобақанинг яқкалик баҳслари ғолиблари ҳам аниқланди. Жумладан, стол тенниси йўналишида кичик сержант Азиза Ҳабибова, дартс йўналишида кичик сержант Альфия Уфимская, шахмат йўналишида сержант Татьяна Гарашенко, шашкадан кичик сержант Музайянахон Раҳмонова, бадминтон турида сержант Барно Ирматова тенгсиз деб топилди.

Ғолибларга диплом, медаль ҳамда қимматбаҳо совғалар топширилди.




Шерзод ШАРИПОВ,
«Vatanparvar»

ЗАМОНАВИЙ ТИЗИМЛАРГА ЭГА

Туркиянинг «Аселсан» мудофаа компанияси ўзининг янги ишланмиси – «Сарп-Зафер» деб номланган масофадан бошқарилувчи енгил жанговар модулни ҳарбий экспертлар эътиборига ҳавола этди. Мазкур модул Қатар ҳудудида чўл шароитларида ўтказилган дала синовларидан муваффақиятли ўтди. Синовлар жараёнида янги тизим «Ёрюк» типдаги зирхли жанговар машинага (ғилдираклар формуласи 4 x 4) ўрнатилган. Аслини олганда, «Сарп-Зафер» 12,7 ва 7,62 мм.ли пулемётлар, шунингдек, автоматик гранатомётлар учун мўлжалланган масофадан бошқарилувчи стабиллаштирилган платформа ҳисобланади. Модулнинг конструктив хусусиятлари зарурий ўқ-дориларни машинанинг ички қисмига жойлаштириш имконини беради, бундай шароитда эса экипаж аъзолари зирхланган корпусни тарқ этмаган ҳолда ўт очишни олиб боришлари мумкин. «Сарп-Зафер» паст силуэтга эга ва турли модификациядаги зирхланган тактик автомобилларга, шу жумладан, махсус операциялар бўлинмаларига тегишли машиналарга ўрнатиш учун мўлжалланган. Модул замонавий ўт очишни бошқариш тизими билан жиҳозланган бўлиб, унинг таркибига кундузги ва тунги кўриш мосламалари ҳамда лазерли масофа ўлчагич киради. «Сарп-Зафер»нинг кузатиш ва масофавий бошқариш тизимлари билан жиҳозлангани жанговар ҳаракатлар вақтида экипаж аъзоларининг атропофдаги вазиятдан хабардорлигини янада яхшилаш имконини яратади.



ОСНАЩЕН ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ



Австралийское подразделение американской авиастроительной корпорации «Боинг» представила прототип реактивного беспилотного летательного аппарата (БПЛА) «Лойял Вингмэн» (*Loyal Wingman*). Перспективный БПЛА, создаваемый в интересах ВВС Австралии, будет выполнять роль ведомого аппарата во время ведения воздушного боя и решения других задач, повышая тем самым эффективность применения пилотируемых самолётов боевой и разведывательной авиации. «Лойял Вингмэн», оснащенный элементами искусственного интеллекта, может действовать в бою самостоятельно, в полуавтоматическом режиме, выполняя команды ведущего пилота, а также быть частью группы, поддерживая безопасную дистанцию по отношению к другим самолётам. До 16 таких БПЛА вместе с пилотируемым самолётом могут составлять боевую группу для выполнения тех или иных задач. Предполагается, что эти аппараты будут нести на борту ракетно-бомбовое вооружение, аппаратуру разведки и радиоэлектронной борьбы. В перспективе разработчики планируют «научить» БПЛА самостоятельно наносить удары по целям. Оборудование, обеспечивающее автономное управление, размещается в модульных контейнерах. В этом случае возможна быстрая установка их на пилотируемые самолёты, которые мгновенно превратятся в БПЛА.

КОНФИГУРАЦИЯГА БОҒЛИҚ РАВИШДА

«Милош» БОВ М16 типдаги зирхланган жанговар машина Сербиянинг «Борбени сложени системи» компанияси мутахассислари томонидан яратилган. Тўлиқ пайвандлаб ишланган корпус экипаж аъзолари ҳамда машинадаги узел ва агрегатларнинг ўқотар қуроллар ўқи ва снаряд парчаларидан ишончли ҳимоя қилинишини таъминлайди. Машина шартли равишда икки қисмга бўлинган: нисбатан кичик ўлчамли олд қисмида мотор бўлими, ҳажми каттароқ орқа қисмида эса экипаж кабинаси ва десант бўлими жойлашган. Бу бўлмада ҳайдовчи ва командир (ёки қурол оператори) жойлашади, уларнинг орқа томонида аскарлар учун иккита жой мавжуд. Десант учун мўлжалланган яна тўртта ўриндиқ корпуснинг орқа томонида жойлаштирилган. Машина саккиз нафар кишини олиб юриши мумкин. Десант бўлимида ўқотар қуроллардан ўт очиш учун сурилма қопқоқли амбразуралар бор. «Милош»нинг жанговар оғирлиги конфигурациясига боғлиқ равишда 12-14 тонна, узунлиги 5,5 метр, эни 2,5 метр ва баландлиги 2,3 метрни ташкил этади. Машина қуввати 300 от кучига тенг бўлган «Камминз» ИСБ типдаги дизел двигател ҳамда «Алиссон» 3500СП типдаги олти узатмали автоматик трансмиссия билан жиҳозланган. Шоссе бўйлаб максимал ҳаракатланиш тезлиги соатига 110 км, ёқилғи бўйича юриш захираси 500 км атрофида. «Милош»га «Югоимпорт-СДПР» компанияси томонидан ишлаб чиқарилган, 12,7 мм.ли пулемётга эга бўлган М15 типдаги масофадан бошқарилувчи қурол модули ўрнатилган.



САМЫЙ «ТИХИЙ» В СВОЕМ КЛАССЕ




Лёгкий многоцелевой вертолёт Н-145М является совместной разработкой специалистов концернов «Еврокоптер» (после ребрендинга – «Эрбас хеликоптерс») и «Кавасаки хэви индастриз» на базе вертолёта ВК117 С1 и предназначен для поддержки подразделений сил специальных операций (ССО) ВС Германии. По планам военного руководства Н-145М должен заменить устаревшие типы вертолетов и сохранить требуемую командованием боеспособность ССО. Вертолёт с максимальной взлётной массой 3700 кг оборудован двумя газотурбинными двигателями с автономной двухканальной цифровой системой управления режимами работы, рулевым винтом типа «Фенестрон» и снижающим рабочую нагрузку на пилотов цифровым комплектом авионики «Хелионикс». Управляют вертолетом два пилота и он может транспортировать до девяти военнослужащих. Н-145М отличается низкой акустической сигнатурой (малый уровень шумности), что делает его самым «тихим» в своем классе вертолетов. Применяется в сложных метеорологических условиях и в любое время суток для решения разведывательных задач, ведения поисково-спасательных операций и медицинской эвакуации. В зависимости от решаемых задач, вооружение вертолета может включать различные системы, устанавливаемые на внешних пилонах. Основные ТТХ вертолета: длина 13,64 м, высота 3,96 м, длина фюзеляжа 6,17 м, максимальная скорость полета 278 км/ч (крейсерская – 256 км/ч), грузоподъемность 1750 кг, дальность полета 705 км, продолжительность полета 3 я 55 мин., максимальная высота полета 6095 м, масса пустого вертолета 2315 кг.

O'ZBEKISTONDA



"THE KOREA POST" JURNALINING O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA MUNOSABATLARI HAQIDAGI MAXSUS SONI CHOP ETILDI

Jurnalda 2021-yil dekabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Janubiy Koreyaga amalga oshirgan davlat tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqqani alohida ta'kidlangan. O'zaro manfaatli hamkorlik, ikki xalq o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlashda imzolangan hujjatlar alohida o'rin tutishi aytilgan.



SARIOSIYODA MIRZO ULUG'BEK HUKMRONLIGI DAVRIDA ZARB ETILGAN MIS TANGALAR TOPILDI

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidan oqib o'tuvchi To'palang daryosi qirg'og'idan mahalliy aholi tomonidan mis tangalar topilgan.

Madaniy meros agentligi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi vakillari tomonidan mahalliy aholidan 512 dona mis tangalar belgilangan tartibda olinib, Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyi fondiga topshirilgan.



KIMLAR MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARI UCHUN TO'LANADIGAN BADAL PULIDAN OZOD ETILADI?

2022-yil 1-apreldan boshlab boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarning farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'lanadigan ota-onalar badalidan ozod qilinadi.

(O'ZA)

JAHONDA

FRANSIYADA PREZIDENT SAYLOVLARI



Fransiyada aprel oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan prezident saylovida qatnashish uchun 12 nafar nomzod ro'yxatga olingani tasdiqlandi. Bu haqda mamlakat konstitutsion kengashi raisi Loran Fabius ma'lum qildi. "Saylovda ishtirok etish uchun dastlab jami 65 kishi xohish bildirdi. Biz saylovchilarning talab etilgan miqdordagi imzosini to'plagan 12 kishini tanlab oldik", – dedi Fabius. Saylovga amaldagi davlat rahbari Emmanuel Makron ham o'z nomzodini qo'ygan. Undan tashqari,

mamlakatda faoliyat olib boruvchi turli partiyalar va muxolifatlar harakati ham o'z nomzodlarini taklif etgan. Fransiyada prezident saylovi 12-aprelda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

MOLDOVA NATOGA QO'SHILMAYDI



Moldova NATOga a'zo bo'lish rejasi yo'qligini bildirdi. Bu haqda mamlakat bosh vaziri Natalya Gavrilița Euronews telekanaliga bergan intervyusida ta'kidlab o'tgan. "Konstitutsiyamizda mamlakatimiz neytrallik tamoyiliga amal qilishi qayd etilgan. Biz Yevropa Ittifoqi (YI) tarkibiga kirmoqchimiz, ammo NATOga a'zo bo'lishga intilmaymiz", dedi bosh vazir. 3-mart kuni Moldova Prezidenti Mayya Sandu

mamlakatning YIga kirish uchun arizasini imzolagan edi. Uning so'zlariga ko'ra, Moldova YIga kirish yo'lida yetarlicha natijaga erishganidan so'ng mamlakatning MDHdan chiqib ketish masalasi ko'rib chiqiladi.

YANGI HARBIY BAZA



Eron raketalar va zarba beruvchi dronlar joylashtirilgan yerosti bazasini namoyish etdi, deb xabar berdi Press TV. Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi harbiy-kosmik kuchlari qo'mondoni Amir Ali Hojizodaning so'zlariga ko'ra, yangi harbiy bazadan bir vaqtning o'zida 60 ta dron havoga ko'tarilishi mumkin. Qayd etilishicha, Eron dronlari dushmanning havo hujumidan mudofaa tizimini yakson qila oladi. Dronlarning parvoz masofasi 2 ming kilometrni tashkil etadi. Mazkur bazada, shuningdek, "yer-yer" sinfidagi raketalar ham joylashtirilgan. O'tgan yil oxirida Eron Arash kamikadze dronini namoyish etgan edi.

POYTXAT NOMI O'ZGARADI



Tailand qirollik jamiyati ofisi (ORST) Bangkok shahri nomi Krung Txep Maxa Nakxon deb o'zgartirilishini ma'lum qildi. Bu haqda Bangkok Post nashri xabar berdi. Ijtimoiy tarmoqlarda ushbu qaror tanqid qilinganidan so'ng ORST shaharning avvalgi nomi rasmiy hujjatlarda yangi nomdan so'ng qavs ichida ko'rsatilishini ma'lum qildi. Krung Txep Maxa Nakxon – bu dunyodagi eng uzun nom sifatida Ginesning rekordlar kitobiga kiritilgan shahar nomining qisqartirilgan varianti hisoblanadi. Poytaxtning to'liq nomi 168 belgidan iborat. Mamlakat hukumati bosh vazir ofisining tegishli qonun loyihasini ma'qullagan.

MINTAQADA



RO'YXATGA OLISH YAKUNLANDI

Turkmanistonda 12-mart kuni navbatdan tashqari prezident saylovi bo'lib o'tadi. Davlat axborot agentligi xabariga ko'ra, Markaziy saylov komissiyasi mamlakat prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olishni yakunlagan. Prezidentlikka nomzodlar siyosiy partiyalar, shuningdek, viloyatlar va Ashxobod shahridan tashabbuskor guruhlar tomonidan ilgari suriladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, Turkmanistonda tug'ilgan, 40 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovga kamida 15 yil Turkmaniston hududida muqim yashayotgan mamlakat fuqarosi Turkmaniston Prezidenti etib saylanishi mumkin. Mamlakat Prezidenti bevosita xalq tomonidan 7 yilga saylanadi.



ASHXOBODDA NUFUZLI ANJUMAN

Joriy yilning 29-30-mart kunlari Ashxobodda "Turkmannebit", "Turkmangaz", "Turkmanximiya" davlat konsernlari, "Turkmangeologiya" davlat korporatsiyasi va Gaffney Cline kompaniyasi tashabbusi bilan "Turkmaniston nefti va gaz" (Oil and Gas of Turkmenistan 2022) investitsion forumi bo'lib o'tadi. Nufuzli anjumanda Xalqaro energetika agentligi, Xalqaro gaz ittifoqi, Gaz eksportchilari forumi, Neft eksportchilari tashkiloti, Rossiyaning "Lukoil", Xitoyning CNPC, Malayziyaning Petronas, Ozarboyjonning Socar kompaniyalari, shuningdek, DragonOil xalqaro kompaniyasi va bir qator boshqa tashkilotlar vakillari ishtirok etishi ko'zda tutilgan.



JAHON BANKI MA'LUMOTI

Jahon banki direktorlar kengashi Afg'onistonni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan va muzlatib qo'yilgan 1 milliard dollardan ortiq mablag'ni qator muassasalar va gumanitar yordam tashkilotlariga o'tkazishga qaror qildi. Bu haqda Jahon banki saytida chop etilgan bayonotda ma'lum qilingan. Rejaga ko'ra, Afg'oniston tiklanish jamg'armasidan grant oluvchilar sifatida BMTning alohida tuzilmalari va xalqaro nohukumat tashkilotlari ko'rsatilgan. Hujjatda ta'kidlanishicha, bu mablag'lar "Tolibon" harakati tomonidan tuzilgan Afg'oniston muvaqqat hukumati nazoratidan tashqarida bo'ladi. Mablag'lar turli dasturlarga, jumladan, ta'lim, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltiriladi.



DEPUTATLIK DAN VOZ KECHDI

Qozog'iston sobiq Prezidentining to'ng'ich qizi, parlament majlisi (quyi palata) deputati Darig'a Nazarboyeva parlament deputati sifatida iste'foga chiqqanini ma'lum qildi, deb xabar beradi Zakon. kz. "Men deputatlikdan voz kechib, butun e'tiborimni ijtimoiy, gumanitar, madaniy va xayriya ishlariga qaratishga qaror qildim... Vatanimizning buguni va kelajagi yo'lida, uning milliy suvereniteti va mustaqilligini asrab-avaylash, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lida jamiyatning hamjihatligini namoyon etishimiz zarur. Men vatanim va uning manfaatlariga xizmat qilishda davom etaman. Buning uchun lavozimlar kerak emas", deyiladi deputat Darig'a Nazarboyevaning murojaatida.

#Sayyor qabul

MUAMMOLAR IJOBIY YECHIMINI TOPMOQDA

Andijon harbiy prokuraturasi, Jalaquduq tumani hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda tumanda joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari muammolarini o'rganish va hal qilish yuzasidan ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Unda harbiy xizmatchilarning 100 dan ortiq oila a'zolari ishtirok etdi. Qabulda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining 20 dan ortiq murojaati o'rganilib, 8 tasi shu yerning o'zida hal qilindi, 12 ta murojaat esa alohida o'rganish talab qilganligi sababli tegishli muassasa, tashkilotlarga yuborilib, ijobiy hal qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Jumladan, kichik serjant M. Rahimovning farzandini maktabgacha ta'lim tashkilotiga joylashtirish yuzasidan murojaati joyida hal



qilinib, tumandagi "Qatortol dilbandlari" MTTga joylashtirilishi ta'minlandi.

Ta'kidlash joizki, qabul davomida harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berib o'tildi.

**Adliya podpolkovnigi
Shukurjon TOSHMATOV,
Andijon harbiy
prokurorining katta
yordamchisi**



#Sana

AYOLGA EHTIROM

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qismlardan birida 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi.



Tadbir ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda so'zga chiqqan qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Jur'at Yakubov barcha ayollarni bayram bilan samimiy qutladi. Qurolli Kuchlar safida ko'p yillardan buyon mardonavor xizmat qilib, yuksak natijalarni qo'lga kiritayotgan bir guruh faol harbiy xizmatchilar rag'batlantirildi.

Ayollar sha'niga aytilgan ezgu tilaklarga hamohang ravishda, vafo, sadoqat va muhabbatni madh etuvchi qo'shiqlar yangradi. Qo'shiqlar raqslarga ulandi.

Mayor Farruxbek SOTIVOLDIYEV

#Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Mingbuloq tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlarning jismoniy va ma'naviy yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



AMALIY HAMKORLIK SAMARA BERMOQDA

Shu bois klub qoshida sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting" va "Motokross" kabi seksiyalar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga 80 nafar iqtidorli yoshlar jalb qilingan. O'z navbatida sportchi yoshlar mamlakat miqyosidagi musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrlı o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. Masalan, yaqinda motokross bo'yicha viloyat birinchiligida ishtirok etgan sportchi Oybekjon Anvarov g'olib bo'ldi. E'tiborli jihati, u respublika bosqichida ham birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

— Bugungi yoshlarimiz nafaqat jismonan, balki ma'nan ham barkamol bo'lishlari lozim, — deydi O'STK boshlig'i Shuhrat Qodirov. — Shu tufayli jamoamiz tashabbusi bilan ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida turli tadbirlarning o'tkazilishi ham an'anaga aylangan. Bunday tadbirlar ayniqsa, Navro'z — umumxalq bayrami arafasida yanada izchil tus olmoqda. Shuningdek, O'STKda tuman mudofaa ishlari va xalq ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan chaqiruv yoshdagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga tayyorlash borasida ham amaliy hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Ayni paytda O'STKda belgilangan o'quv dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, ommaviy kasbdagi mutaxassislarni tayyorlash, yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishni ta'minlash borasidagi ishlar e'tiborga molikdir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Mingbuloq tumani o'quv sport-texnika klubida barcha ishlar "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va viloyat kengashi tomonidan belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.



Xizmatlar litsenziyalangan.

Mingbuloq tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tumanda istiqomat qilayotgan barcha yoshlarni "B", "BC", "B'dan "S"ga qayta tayyorlash hamda "E" toifali haydovchilik kurslariga, shuningdek, sportning texnik va amaliy turlari — "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting" hamda "Motokross" kabi seksiya va to'garaklarda shug'ullanishga taklif etadi.

Mingbuloq tumani Jamashuy shaharchasi, Alisher Navoiy ko'chasi, 11-uy.

99 606-82-82; 94 509-73-00.



BOLAJON



ELNING ARDOQLI SHOIRASI

Shoira Zulfiya bahor kuychisi edi. Ko'klamning ilk kunida tug'ilgan shoira "Baxtim shul o'zbekning Zulfiyasiman!" deganida haq edi. Yashil faslning boshlanishida uning nomi bilan bog'liq qator fayzli tadbirlar bayramlarga ulanadi.

Poytaxtdagi 248-umumta'lim maktabida ham mo'tabar shoiraning tavallud kuniga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Bunday yig'inlarni maktabning yosh navoiyshunoslari Fazilat va Jamolasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolajonlar shoira she'rlaridan o'qidilar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili fakultetining 4-kurs talabasi, amaliyotchi Malika Ergasheva o'z she'rlaridan o'qidi.

Kutilmaganda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy orkestrining kirib kelishi o'quvchilar sevinchini ziyoda qildi. Shu kuni ofitserlar Doniyor Turg'unov, Otabek Sobirov, Mirzo Ulug'bek tumani hokimiyatidan Akmaljon Tillayev, "Uyg'onish" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Rustam Husainov tadbir mehmoni bo'ldi.

Hilola SAGDULLAYEVA,
Toshkent shahri

VIJDON YOXUD KASBGA MAS'ULIYAT

(hikoya)



Erta tongdan singilcham ikkimiz maktabga shoshildik. Havo sovuq bo'lgani uchun hamma qalin kiyingan. Singlim bilan avtobusga chiqdik va ikki kishilik joyga o'tirib oldik. Keyingi bekatda avtobusga yoshi ulug' onaxon chiqdi. Men darhol unga joy berdim. Biroq u:

– Rahmat, qizim, o'tiraver, men keyingi bekatda tushaman, – dedi.

Biroq katta odam tik turganida o'tirib olish menga noqulay bo'ldi. O'rindiqqa qaytib o'tirmadim. Onaxon keyingi bekatda tushmadi, biroq o'tirmadi ham. O'sha bekatdan yoshi o'n sakkizlarda qiz va qo'lida yuk xalta bilan otaxon chiqdi. Ammo qiz yoshi kattalarga parvo ham qilmay, singlimning yoniga o'tirib oldi.

Bir kattalarga bee'tibor qizga, bir horg'in qiyofadagi otaxonga qarayman. Otaxonning qo'lidagi xaltasi turishidan og'irgina. Biroq qizga, "otaxonga joy bering", deyishga o'zimda jur'at topa olmasdim. Chunki u mendan uch-to'rt yosh katta edi.

Eng ajablanarlisi, boshqa o'rindiqlarda ham o'n yetti, yigirma yoshlardagi yigit-qizlar keksalarni ko'rmaganlikka olib, bemalol o'tirardi. Biri oynadan ko'zini uzmas, boshqasi quloqchin taqib, ko'zini yumib olgan. Singilchamni turg'izay desam, xarxasha qilsa, uni qanday yupataman, deb qanday yo'l tutishni bilmasdim, vijdonim qiynalardi. Axir maktabdagi ustozimiz ham, ota-onam va buvijonim ham kattalarni hurmat qilish haqida ko'p ta'kidlashadi.

Shunda haydovchi oldida turgan konduktor "qani, chipta olmaganlar pulini tayyorlasin", deya avtobus saloni ichidagi yo'lovchilarga chipta bera boshladi. Shunda tik turgan keksalarga ko'zi tushdi:

– Otaxon, onaxon, nega yoshlar o'tirib, sizlar tik turibsizlar, ularni turg'izsangiz bo'ladi-ku! – dedi.

– Mayli, qo'yaver, bolam, yoshlar ham charchaydi. O'zlari bilib, joy bermagandan keyin...

Nazoratchi darhol vaziyatni tushundi va o'tirgan yoshlarga qarata:

– Yigitlar, qizlar, kattalarga joy bermaysizlarmi? Menimcha, telefon bilan ovora bo'lib, ularga ko'zingiz tushmagan ko'rinadi, – dedi samimiylilik bilan.

Shunda, "o'tiring onaxon", "o'tiring otaxon", deya uch-to'rttasi baravar o'rnidan turdi. Mening dilim yorishdi. Qani endi, boshqa avtobuslardagi konduktorlar ham faqat chipta sotish bilan cheklanmasdan, shu nazoratchi kabi ish olib borsa, degan xayol ko'nglimdan o'tdi. Mamnun qiyofadagi keksalarga qarab, yengil tin oldim.

Diyora FAXRUTDINOVA,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi
241-maktabning 7-sinf o'quvchisi



TENGDOSHLARINGIZ IJODIDAN



Gulshoda Akramova, Chirchiq shahridagi
11- maktabning 3-sinf o'quvchisi.
Kelajakdagi orzusi yaratgan asarlari orqali
dunyoga tanilish.



MEHNATNING MUKOFOTI

Ikki nafar hamkasbimizga bu yilgi 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni qo'shaloq yangiliklarga, xursandchiliklarga boy bo'ldi. Jumladan, ijodiy jamoamizga ham.

Tahririyatimizning jonkuyar, fidoyi xodimlaridan biri, jurnalist va shoira, Qurolli Kuchlar xizmatchisi Zulfiya Yunusova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi. Sovrindorlarni taqdirlash marosimi Toshkent shahri hokimligida bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi Malika Qodirxonova, Senat a'zolari, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ushbu ko'krak nishon jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida ta'bis etilgan.

Zulfiya Yunusova ana shunday mehnatkash, zahmatkash va fidoyi inson. Chin ma'nodagi



mo'tabar ayol. Ijodkor ayol harbiylar safida turib, Vatan oldidagi xizmatini chin yurakdan ado etar ekan, mukofotlarning o'zi qatorlashib kelaveradi.

Ushbu yuksak mukofotga loyiq ko'rilgan nomzodlar bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari miqdorida biryo'la to'lanadigan pul mukofotiga ega bo'lishdi.



O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan mamlakatimizda jurnalist ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijodiy salohiyatini namoyon qilishiga ko'maklashish, erishgan yutuqlarini e'tirof etish va ularni rag'batlantirish maqsadida har yili o'tkazib kelinadigan "Atirgul" tanlovi qayta tiklandi va g'oliblar aniqlandi.

Quvonarlisi shundaki, hamkasbimiz mayor Gulnora Hojimurodova mazkur tanlovning "Harbiy-vatanparvarlik mavzusi eng yaxshi yoritilgan materiallari uchun" nominatsiyasida rag'batlantiruvchi mukofotni qo'lga kiritdi.

Ushbu yutuqlar bilan har ikki jamoadoshimizni samimiy tabriklaymiz. Ha, bu yutuqlar tinimsiz mehnatning shirin mukofoti, rohatidir.

TAHRIRIYAT

#Armiya va yoshlar

MEHRDAN YARALGAN

MAHSULOTLAR YARMARKASI

“
Mirzo Ulug'bek
tumanida joylashgan
101-ixtisoslashtirilgan
maktab-internati
o'quvchi-yoshlarining
eshitish va gapirish
imkoniyati cheklangan.
Ammo bu ularning
mehnatsevarligi,
ijodkorligi va
intiluvchanligiga aslo
ta'sir o'tkazmaydi.”

Gap shundaki, bugun mazkur ta'lim dargohida ana shu o'quvchilarning qo'l mehnati mahsulotlari yarmarkasi bo'lib o'tdi. Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy orkestrining sho'x-shodon kuy-qo'shiqlari bilan boshlangan yarmarkada namoyish etilgan qo'l mehnati mahsulotlarini ko'rib, ularning yaratuvchanlik qobiliyatiga tasanno aytasiz. Yog'och o'ymakorligi, rassomchilik, kashtachilik, tikuvchilik va boshqa ko'plab yo'nalishlarda yaratilgan san'at asarlari sira bir-birini takrorlamaydi. Ha, bu asarlar o'quvchilarning mehridan yaralgan.

Respublika Harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya polkovnigi Sherzod Haitov boshchiligidagi harbiylar ham ushbu yarmarkada ishtirok etib, mahsulotlar xaridiga o'z hissalarini qo'shishdi. Shuningdek, yarmarkaga tuman maktablarida tahsil olayotgan, profilaktik ro'yxatda turadigan o'quvchilar ham taklif etildi.

Harbiy xizmatchilar maktab-internatda tahsil olayotgan o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishdi. Ular bilan muloqotga kirishib, kelgusidagi birgalikda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasiga aniqlik kiritildi.

I. NURALIYEV



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti
- "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:

mayor Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: leytenant Islomjon Qo'chqorov

Sahifalovchi: Nodirabegim Valiyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: F-0305

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 32 927 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.